VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 171 (1497), 2025-yil 22-avgust, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news


# SUD TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNI FUQAROLAR O‘Z HAYOTIDA SEZMOQDA

## Prezident Shavkat Mirziyoyev sud tizimini takomillashtirish va odil sudlov masalalariga oid taqdimot bilan tanishdi.

So‘nggi yillarda bu soha izchil isloh qilinib, sudlar jazolovchi organdan inson huquqlarini himoya qiluvchi tizimga aylantirildi.

Jumladan, ma’muriy sudlar tashkil etildi. Maishiy zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan samarali choralar ko‘rildi. Oilaviy masalalarga ixtisoslashgan sudyalar korpusi yaratildi. Investitsiyaviy nizolar bo‘yicha alohida sudlov tarkibi tashkil etildi.

Bu islohotlarni fuqarolar o‘z hayotida sezmoqda, xorijiy ekspertlar muhim qadam sifatida e’tirof etmoqda.

Shu bilan birga, sudlovning ochiqligi va xalqchilligini ta’minlash, raqamlashtirish orqali odamlarga qulaylik yaratish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo‘yicha ko‘p masalalar o‘z yechimini kutmoqda.

Taqdimotda bu boradagi rejalar va ularni amalga oshirish chora-tadbirlari muhokama qilindi.

Odil sudlov sohasini raqamlashtirish maqsadida rivojlangan davlatlarning tajribasi asosida “Raqamli sud” konsepsiyasi ishlab chiqildi va uni izchil amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi. Bu korrupsiyaning oldini olish, fuqarolar va tadbirkorlarga ovoragarchiliksiz odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tahlillarga ko‘ra, fuqarolik va iqtisodiy sudlarda ko‘riladigan da’volarning katta qismi nizosiz ishlarga to‘g‘ri kelmoqda. Shu bois, bunday masalalarni ma’muriy organlar vakolatiga o‘tkazish taklif etilmoqda. Bunday tizim fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari muammolarining qisqa muddatda hal etilishini ta’minlaydi.

Yana bir qulaylik — ma’muriy va iqtisodiy sud ishlarini eksterritorial tarzda ko‘rish tartibini joriy etish. Bugungi raqamli texnologiyalar asrida buning imkoni bor.

Adolat va ishonchni ta’minlashda sudyalik lavozimining barqarorligi muhim. Shu maqsadda sudyalikka tayinlash muddatlarini qayta ko‘rib chiqish ko‘zda tutilmoqda.

Barcha yo‘nalishdagi sudlar bo‘yicha mintaqaviy taftish sudlarini tashkil etish, viloyat va unga tenglashtirilgan sudlardagi taftish instansiyalarini tugatish taklifi bildirildi. Bunda viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarda faqatgina apellyatsiya va kassatsiya instansiyasi bo‘lishi, taftish instansiyasi esa 5 ta mintaqaviy sudda tashkil etilishi rejalashtirilmoqda.

Yana bir muhim masala — sud tizimi uchun kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirishdir. Shu maqsadda Sudyalar oliy maktabini isloh etib, uning negizida Odil sudlov akademiyasini tashkil etish konsepsiyasi taqdimot qilindi.

Davlatimiz rahbari bildirilgan takliflarni ma’qullab, tegishli farmonlarni imzoladi. Rejalashtirilgan vazifalar ijrosini tizimli va sifatli ta’minlash bo‘yicha topshiriqlar berildi.

**O‘zA**

# O‘ZBEKISTON PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN TURKMANISTONDA BO‘LADI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovning taklifiga binoan 22-avgust kuni “Ozarbayjon — Turkmaniston — O‘zbekiston” formatidagi uch tomonlama sammitda ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ladi.**

“Avaza” milliy sayyohlik zonasida bo‘lib o‘tadigan tadbir kun tartibiga muvofiq, ko‘p tomonlama hamkorlikni, eng avvalo, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, energetika va gumanitar sohalarda rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Qator qo‘shma hujjatlar imzolanishi ko‘zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari sammit doirasida ikki tomonlama muzokaralar ham o‘tkazadi.

**O‘zA**

# O‘ZBEKISTON – TURKMANISTON – OZARBAYJON SAMMITI

## BIRGALIKDAGI YANGI IMKONIYATLAR SARI NAVBATDAGI QADAM

**O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 22-avgust kuni Turkmanboshi shahrida bo‘lib o‘tadigan “Ozarbayjon — Turkmaniston — O‘zbekiston” formatidagi uch tomonlama sammitda ishtirok etadi.**



Ta’kidlash kerakki, O‘zbekistonning Turkmaniston bilan ham, Ozarbayjon bilan ham ikki va ko‘p tomonlama munosabatlari yuksak darajaga ko‘tarilgan. Bugun jahonda kechayotgan global o‘zgarishlar esa uch davlat o‘rtasidagi aloqalarni barcha jabhalarda yangi bosqichga olib chiqishni taqozo qilmoqda. Xususan, transport-kommunikatsiya, energetika, dengizga chiqish va boshqa yo‘nalishlarda o‘zaro sheriklikni jadallashtirish uchun yuqori salohiyat mavjud.

Turkmanboshi shahrida o‘tadigan uch tomonlama sammit ana shu salohiyatdan unumli foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi kutilmoqda.

Qayd etish joiz, shu yil 5-8-avgust kunlari Turkmanistonning “Avaza” milliy turistik hududida bo‘lib o‘tgan BMTning Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha uchinchi konferensiyasi doirasida ham O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov va Ozarbayjon Bosh vaziri Ali Asadovning uch tomonlama uchrashuvi bo‘lib o‘tgan edi. Unda o‘zaro manfaatli mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish va qo‘shma loyihalarni ilgari surish masalalari ko‘rib chiqildi.

*Davomi 2-betda*

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 34 yilligiga



# OLIMPIYA SHAHARCHASI VA MILLIY FUTBOL MARKAZI

## O‘ZBEK SPORT FALSAFASINING YANGI “YO‘L XARITASI”, MUKAMMAL TIZIMNING IKKI BO‘G‘INI

**Muayyan makon va zamonlar borki, ular butun bir jamiyatning ruhiy qiyofasiga aylanadi. Masalan, turli davrlarda turli xalqlar o‘z kuch-qudratini qanday namoyon etganini eslaylik. Bobilliklar Ishtar darvozasi-yu Etamenanki zikkurati qurgan bo‘lsa, Misr fir’avnlari piramidalar orqali abadiylikka intilgan. Yevropada esa o‘rta asrlarda nafis shahar maydonlari elning birdamligini, ulug‘vor universitet binolari ilmga ehtiyojni ifoda etgan. Ya’ni har bir jamiyat o‘zi uchun muhim bo‘lgan qadriyatni moddiy shaklga solib ko‘rgan.**



Shu ma’noda, yurtimizda qurilgan Olimpiya shaharchasi — inson va jamiyat irodasining moddiylashuvi, niyatli harakatning amalga ko‘chgan qiyofasidir. Zotan, har bir zamon o‘zini alohida bir ramz orqali ifoda qiladi. Olimpiya shaharchasi esa bugungi millatning ichki qudratini, uyushqoqlikning yangi madaniyatini va intizomga bo‘lgan tayyorligini, o‘z imkoniyatlarini sinovdan o‘tkazishga shiddat bilan kirishganini namoyon etadi. Unda o‘zbekning o‘z so‘zini dunyoga eshittirish istagi mujassam.

*Davomi 3-betda*

# FALASTIN MATBUOTI PREZIDENTIMIZNING OQILONA SIYOSATINI OLQISHLAMOQDA

**Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 14-avgustdagi “O‘zbekistondagi bir guruh falastinlik fuqarolarga davlat g‘amxo‘rligi, mehr-shafqat tamoyillari asosida ko‘mak berish tizimini yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonini falastinliklar katta mamnuniyat bilan e’tirof etmoqda.**

Falastinning “Wafa”, “Sadanews” axborot agentliklari, “Alquds” kabi qator nashrlarida “Falastin hukumati O‘zbekiston yetakchisi Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekistonda istiqomat qiluvchi Falastin fuqarolariga yordam ko‘rsatish bo‘yicha yaxlit tizim yaratish to‘g‘risidagi farmonini olqishlaydi” sarlavhali maqola chop etilgani buning yorqin misolidir.

Maqolada davlatimiz rahbarining yurtimizga olib kelingan falastinlik fuqarolarga ijtimoiy yordam joriy etilishi nazarda tutilgan farmoni haqida so‘z boradi. Jumladan, hujjatda falastinlik bemorlar va hamrohlari moslashuvini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus respublika komissiyasi hamda ular uchun barqaror parvarish va keng qamrovli ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlash maqsadida maxsus jamg‘arma tashkil etilishi belgilangani alohida e’tirof etilgan.

O‘zbekistonning Falastin xalqiga ko‘rsatayotgan salmoqli yordami va barcha darajada adolatli sa’y-harakatni aks ettiruvchi qadami tahsinga loyiq, deyilgan maqolada. Shuningdek, respublikaning xalqaro qonuniylik rezolyutsiyalari va dunyoviy huquq me’yoriga muvofiq, ikki davlat tamoyiliga asoslangan Falastinni qo‘llab-quvvatlash borasidagi prinsipial va tarixiy pozitsiyasi yuqori baholangan.

Muallif yurtimizda inson hayoti, sha’ni va qadr-qimmatini ulug‘lash, muhtojlarga mehr bilan yondashish, ezgulik va adolat tamoyiliga sodiq qolish dinimiz, madaniyatimiz va an’analarimizning ajralmas qismi ekaniga alohida e’tibor qaratgan.

Maqolada falastinliklarni qo‘llab-quvvatlash harakati O‘zbekiston Respublikasining xalqaro gumanitar va inson huquqi tamoyiliga sodiqligining yana bir ifodasi ekaniga urg‘u berilgan. Bu jarayon xalqaro birdamlikni mustahkamlash, urushdan jabrlanganlarni himoya qilish, kishilar hayoti va asosiy huquqiga tahdid soluvchi jiddiy inqiroz sharoitida insoniy qadr-qimmatni saqlab qolishning amaliy namunasi sifatida e’tirof etilgan.

**Muharrama PIRMATOVA,**
**O‘zA muxbiri**

# NURONIYLAR TASHABBUSKOR KUCHGA AYLANDI

**Mustaqilligimizning 34 yillik bayrami “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” ezgu g‘oyasi ostida katta quvonch va tantanalar bilan boshlanmoqda. Bu xalqimizning baxtiyor qiyofasida, nuroniylarimizning nurli chehrasida aks etmoqda. Eng ulug‘, eng aziz bayramimiz ahilligimiz, o‘zaro mehr-oqibatimizda, inson qadri ulug‘lanayotgan diyorda biz — nuroniylarning dilida, tilida shukrona bo‘lib ifodalanmoqda. Eng muhimi, bayram tantanalarini tinch va osoyishta muhitda nishonlayotganimizning o‘zi ulkan saodat.**

Shukuhli kunlarda barcha soha va tarmoqlardagi ortga qaytmas islohotlarimiz “Inson qadri uchun, inson baxti uchun” degan ezgu g‘oya asosida amalga oshirilayotgani xalqimizning kundan kun farovon bo‘lib borayotgan hayotida aks etmoqda. Mustaqilligimizni mustahkamlashdek ezgu harakatlarda yurtimiz nuroniylari alohida g‘ayrat bilan barchaga namuna bo‘layotgani tahsinga sazovor.

Hozirgi nuroniylar 9-10 yil avvalgi chol-kampirlardan keskin farq qiladi. Ilgari pensiya yoshiga yetganlar o‘zini jamiyat hayotiga keraksizdek his etgan davrlar ham bo‘ldi. O‘sha pallada “Nuroniy” jamg‘armasi faxriylarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bilangina shug‘ullangan.

*Davomi 2-betda*

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz — yuz.uznews — yuz_official — yuz.uz_news — yuz

# O‘ZBEKISTON – TURKMANISTON – OZARBAYJON SAMMITI

## BIRGALIKDAGI YANGI IMKONIYATLAR SARI NAVBATDAGI QADAM

Boshlanishi 1-betda

Eng avvalo, energetika, transport va logistika, sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarida kooperatsiya uchun imkoniyatlar mavjudligi qayd etildi.

Amaliy hamkorlikning istiqbolli loyihalarini ishlab chiqish uchun mazkur formatdagi muloqotlarni davom ettirishga kelishib olindi.

O‘zbekiston — Turkmaniston munosabatlari ikki davlat rahbarlarining siyosiy irodasi tufayli so‘nggi yillarda sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, 2017-yil 6-martda imzolangan Strategik sheriklik to‘g‘risidagi shartnoma va 2022-yil 21-oktabrda imzolangan Strategik sheriklikni chuqurlashtirish to‘g‘risidagi deklaratsiya ikki tomonlama hamkorlikning mustahkam shartnomaviy-huquqiy asosi sifatida xizmat qilmoqda.

> **Davlat rahbarlarining o‘zaro rasmiy tashriflari va ko‘p tomonlama formatdagi uchrashuvlari davomida ikki mamlakat aloqalarini yanada rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu uchrashuvlar, shubhasiz, Markaziy Osiyo mintaqasida uzoq muddatli barqaror sheriklik, tinchlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini rivojlantirish hamda kengaytirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.**

Shuningdek, Turkmaniston O‘zbekistonning muhim savdo sheriklaridan biri hisoblanadi. 2025-yilning birinchi yarim yilligi yakuniga ko‘ra, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 464 million AQSH dollarini tashkil etdi. O‘zbekistonda Turkmaniston tomoni bilan 240 ta qo‘shma korxona samarali faoliyat olib bormoqda.

Ikki davlatning mintaqada yirik energetika loyihalarini amalga oshirishda ham faol ishtiroki kuzatilmoqda. Shuningdek, transport sohasi munosabatlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Mamlakatlarimizning o‘zaro integratsiyalashgan avtomobil va temir yo‘llari uchinchi davlatlar uchun tranzit vazifasini o‘taydi.

Aytish joizki, o‘zbek va turkman xalqlarini bir-biriga bog‘lab turadigan tarix, turizm, madaniyat va urf-odatlar xalqlarimizning umumiy mulkiga aylangan. Bu yaqinlik madaniy-gumanitar va turizm sohasidagi aloqalarni rivojlantirish uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qilayotir.

Yana bir muhim jihat bu — yurtimizda turkman tili, madaniyati, urf-odatlarini asrab-avaylash va rivojlantirish uchun barcha sharoit yaratilgan. Shuningdek, buyuk o‘zbek shoiri va davlat arbobi Alisher Navoiy merosi Turkmanistonda yuksak qadrlanadi. Turkman xalqining ardoqli shoiri Maxtumquli Firog‘iy g‘azallari esa mamlakatimizda sevib mutolaa qilinadi.

Ozarbayjon O‘zbekistonning yaqin do‘sti va vaqt sinovidan o‘tgan ishonchli strategik hamkoridir. 2022-yilda Strategik sheriklikni chuqurlashtirish va keng qamrovli hamkorlikni rivojlantirish deklaratsiyasi hamda 2024-yilda Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnoma kabi hujjatlarning imzolanishi bilan ikki tomonlama munosabatlar tarixida mutlaqo yangi sahifa ochildi.

Muntazam tashriflar va oliy darajadagi uchrashuvlar hamkorlikning barcha yo‘nalishlarida yuqori sur’atlarni belgilab, o‘zaro aloqalarni rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib xizmat qilyapti.

Savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy aloqalarni kengaytirish, jahon bozorida raqobatbardoshlikni oshirish, xorijiy sheriklar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasini chuqurlashtirish, mintaqada yangi transport yo‘laklarini yaratish, rivojlantirish va ulardan samarali foydalanish xalqaro hamkorlikning eng muhim yo‘nalishlaridandir.

Transport ma’muriyatlari darajasida yaqin muloqotlar olib borilmoqda, savdo-iqtisodiy aloqalar, sanoat kooperatsiyasi mustahkamlanmoqda.

O‘zbekiston va Ozarbayjon mos ravishda Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkazda yirik iqtisodiy salohiyatga ega davlatlar sanaladi. Bu ularni iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni chuqurlashtirishga intilayotgan iqtisodiy jihatdan istiqbolli sheriklarga aylantiradi. Shuningdek, Ozarbayjon kapitali ishtirokida savdo, mashinasozlik va metalga ishlov berish, moliya va sug‘urta, ko‘chmas mulk oldi-sotdisi, energetika, xizmat ko‘rsatish, zargarlik buyumlari ishlab chiqarish, oziq-ovqat sanoati, yengil sanoat va boshqa yo‘nalishlarda faoliyat yuritayotgan 250 dan ortiq korxona O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishga muhim hissa qo‘shmoqda.

Ozarbayjonda “UzAuto” avtomobil yig‘ish zavodining ochilishi sanoat kooperatsiyasining yorqin misollaridan biri bo‘ldi. Mazkur loyiha O‘zbekistonning eksport imkoniyatlarini kengaytirdi va Ozarbayjonda yangi ish o‘rinlari yaratdi. Shu bilan birga, agrosanoat, to‘qimachilik sanoati, logistika sohalaridagi kooperatsiya ham muvaffaqiyatli rivojlanyapti. Har ikki davlat ham Transkaspiy yo‘nalishi loyihalari orqali tranzit salohiyatidan samarali foydalanish, shuningdek, transport strategiyalarini integratsiyalashuvidan manfaatdor.

O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 2024-yil yakuniga ko‘ra, 250 million dollardan oshdi. Shu bilan birga, tomonlar kelgusi yillarda uni bir necha barobar oshirishga intilmoqda. Bunga mamlakatlar o‘rtasida o‘rnatilgan erkin savdo rejimi va joriy yilning iyun oyida Bokuda so‘nggi yig‘ilishi bo‘lib o‘tgan hamkorlik bo‘yicha Hukumatlararo qo‘shma komissiya yaqindan ko‘maklashmoqda.

Shuningdek, ikki davlat hududidagi eng istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish maqsadida 2023-yilda ustav kapitali 500 million dollar bo‘lgan O‘zbekiston — Ozarbayjon qo‘shma investitsiya kompaniyasi tashkil etildi.

Mazkur tuzilmalarning tashkil etilishi rasmiy Toshkent va Bokuning iqtisodiy integratsiyalashuvi hamda savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikning mavjud salohiyatini to‘liq amalga oshirishdan o‘zaro manfaatdorligidan dalolat beradi. Buni ko‘plab tadbirlar — ko‘rgazmalar, biznes-forumlar, biznes missiyalar ham tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston 2030-yildan boshlab mamlakatda ishlab chiqarilgan ortiqcha “yashil” elektr energiyasini Ozarbayjon orqali Yevropaga eksport qilishni rejalashtiryapti. 2024-yil noyabrida O‘zbekiston, Qozog‘iston va Ozarbayjon Prezidentlari “Markaziy Osiyo — Ozarbayjon — Yevropa” yashil energetika yo‘lagini yaratish loyihasiga start berdi. O‘tgan yili dekabr oyida uch mamlakat o‘rtasida loyihaning ta’sis shartnomasi imzolandi. Loyihaning ekologik ahamiyatini alohida qayd etish kerak. Uzatiladigan energiya bu — shamol va quyosh energiyasi bo‘lib, qayta tiklanadigan va toza manba hisoblanadi hamda iqlimga ta’sirni yumshatish imkonini beradi.

Shu orqali O‘zbekiston va Ozarbayjon Parij bitimi va Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida iqlimni muhofaza qilish bo‘yicha qo‘shma sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlamoqda.

> **O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi madaniy-gumanitar, turizm almashinuvlarni rivojlantirishda din, til, madaniyat va an’analarning tarixiy mushtarakligi muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, ikki davlat hududlarida madaniyat va adabiyot kunlari, kino va ijodiy haftaliklar, gastrol safarlari, badiiy ko‘rgazmalar muntazam o‘tkazib kelinmoqda.**

Ozarbayjon bilan do‘stlik rishtalarini mustahkamlashga bugun O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan ozar millati vakillari ham o‘z hissasini qo‘shmoqda. Ularning madaniyati va an’analarini asrab-avaylash maqsadida mamlakatimizda Ozarbayjon madaniyat markazlari uyushmasi tashkil etilgan.

Muxtasar aytganda, Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Ozarbayjon — Turkmaniston — O‘zbekiston” formatidagi uch tomonlama sammitda ishtirok etishi, avvalo, Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz mintaqalarini yanada birlashtirish, uch mamlakat o‘rtasida ko‘p qirrali va o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish hamda ikki mintaqa xalqlarining farovonligini oshirishga va birgalikdagi yangi yutuqlarni qo‘lga kiritishga xizmat qiladi.

**“Dunyo” AA**

Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!

# NURONIYLAR TASHABBUSKOR KUCHGA AYLANDI



**Sodiqjon TURDIYEV,**
**“Nuroniy” jamg‘armasi respublika boshqaruvi raisi,**
**O‘zbekiston Qahramoni, senator**

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 28-dekabrdagi farmoni e’lon qilingach, keksa avlod vakillarining jamiyat hayotidagi ijtimoiy faolligini oshirishga alohida e’tibor qaratildi. Bu e’tibor va ishonch nuroniylarga juda katta quvonch, g‘ayrat va qanot bag‘ishladi.

Bugun ular jamiyatimiz hayotida faol va tashabbuskordir. Mahallalar va oilalar tinch-totuvligi, hamjihatligini ta’minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish hamda o‘sib kelayotgan yosh avlodni bilimli, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashda davlatimiz rahbarining biz, nuroniylarga bildirayotgan yuksak ishonchini oqlash maqsadida bor kuch va imkoniyat, katta hayotiy tajribasini ishga solayotir.

Jamiyatimizning qaysi jabhasiga kirib bormang, u yerda, albatta, faol nuroniylarni ko‘rasiz. Biri yoshlarning qo‘lidan tutib, hayotda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashayotgan bo‘lsa, boshqasi mahallalardagi tomorqalarda kambag‘al oilalar a’zolariga yer ilmini, bog‘bonlik, dehqonchilik sirlarini o‘rgatmoqda. Boshqa birovi kambag‘al oilalar vakillarining hayotini yaxshilash uchun mahalladagi hokim yordamchisi bilan hamkorlikda ishlayotgan bo‘lsa, yana kimdir oilalardagi notinch muhitni sog‘lomlashtirishga urinmoqda.

Aksariyat nuroniylar va buvijonlarni esa bog‘cha-yu maktablarda, oliy o‘quv yurtlarida, mahalla fuqarolar yig‘inlarida odamiylik saboqlarini o‘tayotganida uchratasiz. Ba’zilari turli tashkilotlar, ishlab chiqarish korxonalari, sog‘liqni saqlash muassasalari, savdo maskanlarida yurib, xalqimizning ijtimoiy muammolarini o‘rganyapti, jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘ymoqda. Odamlar bilan suhbatlashib, kamchiliklarni aniqlab, bartaraf etish yuzasidan mutasaddi tashkilotlarga takliflar kiritmoqda.

Bu sa’y-harakatlardan bugun faol nuroniylar chin ma’noda jamiyatning qalbi, urib turgan yuragini aks ettiruvchi, jamiyatni butun bo‘y-basti bilan ko‘rsatib turuvchi ko‘zguga aylangani anglashiladi.

Ular orasida ziyoli targ‘ibotchilar, faylasuflar, ishlab chiqaruvchilar, hunarmandu tadbirkorlar, ijodkorlar va yana boshqa sohalarda yuqori malaka hamda tajriba orttirgan insonlarni uchratish tabiiy. Nuroniylarning barchasi o‘z salohiyati va imkoniyatidan kelib chiqib, islohotlar samaradorligini ta’minlash, xalqimizning hayotini yanada yaxshilashga harakat qilmoqda.

“Bir nuroniy — o‘n yoshga mas’ul”, “Nuroniy — har bir oilaga mas’ul” kabi loyihalar, “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish, “Ustoz va shogird”, “Qo‘sha qarish saodati”, “G‘ayratli keksalar”, “Salomatlik sari 5000 qadam”, “O‘z uyingni o‘zing asra!”, “Mening mahallam — jinoyatchilikdan xoli hudud”, “Oilam — mening baxtim”, “Kitobxon oila”, “Otalar choyxonasi” kabi mavzulardagi ma’rifiy va sport tadbirlari, “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” shiori ostida o‘tayotgan bayram tantanalarida nuroniylarning o‘z aytar so‘zi, o‘rni bor, albatta.

Mahallalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish yo‘lida hamkor tashkilotlar va “mahalla yettiligi” bilan hamqadam harakat qilayotgan nuroniylar faolligi tufayli ajralish yoqasiga kelib qolgan kelin-kuyovlar yarashtirilmoqda, oilalar kambag‘allikdan chiqarilyapti. Alohida e’tibor va ishlashga moyil yoshlar muammoli oilalar ro‘yxatidan chiqarilib, o‘qishi va kasb-hunar o‘rganishiga ko‘maklashilmoqda. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali keksalar salomatligi yanada mustahkamlanmoqda.

Davlatimiz ko‘rsatayotgan e’zoz va e’tibor otaxon-u onaxonlarni chin ma’noda faollikka, uyg‘oqlik va ziyraklikka undayapti. Shu bois, jamiyatimizdagi og‘riqli masalalarni bartaraf etishda nuroniylar ko‘plab tashabbuslarni ilgari surmoqda. Ayniqsa, oilalardagi notinchliklar, ajralishlar ko‘payib borayotgani, bu masala jamiyatimizning og‘riqli nuqtalaridan biriga aylangani uyg‘oq qalbli barcha kishilar qatori nuroniylarni ham o‘ylantirib turibdi.

2024-yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan nuroniylar, imom-xatiblar, mahalla faollaridan iborat nuroniylar kengashi va ota-onalar guruhlari tashkil etilgan edi. Davlatimiz rahbari ishonch bildirganidek, Qo‘qon va Marg‘ilon shaharlarida mazkur kengash tajribasi samarali bo‘ldi.

“Nuroniy” jamg‘armasi respublika boshqaruvi mas’ulligida yurtimizning barcha hududida tashkil etilgan nuroniylar kengashlari va ota-onalar guruhlari bugun ham oilalarni mustahkamlash, onalik hamda bolalikni muhofaza qilish, erta turmush, qarindosh-urug‘lar o‘rtasidagi nikoh va ajralishlarning oldini olish, to‘y-ma’rakalarni ixcham o‘tkazish, yoshlarni tejamkorlikka o‘rgatish, oilalarda tinchlik-totuvlikni ta’minlashda o‘z so‘zini qat’iy aytib, odamlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlayapti. Shuningdek, qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar oqibatida nogironligi bor va xasta farzandlar tug‘ilishi, milliy genofondimizga katta zarar yetishi, bunday nikohlardan tug‘ilayotgan nogironligi bor farzandlar jamiyatimizning og‘riqli muammosi bo‘lib turganini ham nuroniylar aniq misollar bilan tushuntiryapti.

Yaqinda Farg‘ona viloyati Quva tumanida nuroniylar va hamkor tashkilotlar vakillari ishtirokida oilalarni mustahkamlash, ajralishlar, xotin-qizlar orasida jinoyatchilikning oldini olish hamda yoshlarni turmushga tayyorlash, bu boradagi muammolarni bartaraf etish, yurtimizda faoliyat yuritayotgan Oqsoqollar kengashi va ota-onalar guruhlari faoliyatining tahliliy muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazildi. Unda “Mamlakatimizda oilalar tinch, farovon yashashi, ularning bag‘rida kamolga yetayotgan ertamiz egalari — farzandlarimizning har tomonlama baxtiyor o‘sib-ulg‘ayishi uchun barcha sharoit muhayyo qilingan bo‘lsa-da, nega ajralishlar ko‘paymoqda? Nega notinch oilalar soni ortmoqda?” kabi savollar o‘rtaga tashlandi.




Ajralish yoqasiga kelib qolgan oilalarni o‘rgangan nuroniylar bu borada o‘ta muhim omilni, ya’ni oilaviy qadriyatlarga munosabatni e’tibordan chetda qoldirmaslik zarurligini ta’kidladi. Chunki bugungi aksariyat yoshlar mustaqil hayotga tayyor emasligi natijasida oilaviy mojaro va notinchlik ko‘paymoqda.

Bunday oilalar jamiyatimizning og‘riqli muammosiga aylanayotgan ekan, farzandlar taqdiri kishini beixtiyor tashvishga soladi. Chunki ota-onaning ajralishi bolalar qalbini kemtik qiladi, ular hammadan ko‘p aziyat chekadi. Shu bilan birga, bunday oilada o‘sgan bolalar shaxs sifatida hayotda o‘z o‘rnini topish, kasb tanlash, ijtimoiy hayotga moslashishda ko‘plab qiyinchiliklarga duch keladi.

Oilaviy ajralishlar sababli jamiyat va davlat miqyosida ham muayyan bo‘shliq yuzaga keladi. Bunday noxush holatlar yuzaga kelmasligi uchun har bir xonadonda ota-onalarning farzandlariga namuna bo‘lib, ular ongiga oilaviy qadriyatlarni singdirib borishi kerak.

Xuddi shu masala yuzasidan “Nuroniy” jamg‘armasi Quva tumani bo‘limi raisi Zohidjon Ashurov va quvalik 300 dan ortiq faol nuroniy oilalarni mustahkamlash, milliy qadriyatlarni saqlash, xonadonlardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish maqsadida joriy yilning sentyabr oyini Oilalarni mustahkamlash va ajralish yoqasiga kelib qolgan oilalarni yarashtirish oyligi sifatida belgilash tashabbusini ilgari surdi.

Bu ezgu tashabbusni bugun mamlakatimizdagi barcha nuroniylar qo‘llab-quvvatlamoqda. Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, Yoshlar ishlari agentligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, “mahalla yettiligi” va boshqa hamkor tashkilotlar bilan hamjihat bo‘lib ishlashimiz bu borada natijadorlikni oshirishda muhim omildir.

Bugun davlatimiz ko‘rsatayotgan e’zoz-u e’tibordan kuch olib, harakat qilayotgan nuroniylar ilgari surayotgan ezgu tashabbuslar, chin ma’noda, yurtimizda farovon va baxtiyor oilalar, saodatli jamiyatni barpo etishdek ulug‘vor maqsadni ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

# TADBIRKOR BO‘LIB KAM BO‘LMADIM

**“Ravon taraqqiyot orzusi” mas’uliyati cheklangan jamiyatimiz 2019-yilda ish boshlagan. Albatta, har qanday faoliyat birdaniga izga tushib ketmaydi. Bugungi natijaga, ya’ni davlat rahbarining e’tirofi darajasidagi muvaffaqiyatga erishish oson kechmadi. Mashaqqatli yo‘llarni bosib o‘tdik. Buning samarasi, avvalo, minglab yangi ish o‘rinlari yaratib, odamlarni daromadli qilganimizda, ishchilarning mamnun chehrasida, hayotdan roziligida ko‘rinadi.**



**Abdulhoshim ISMOILOV,**
**“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan tadbirkor” faxriy unvoni sohibi**

Dil izhori

Ayni paytda yil mavsumlari uchun erkaklar, ayollar hamda bolalarga mo‘ljallangan 100 dan ortiq turdagi sifatli, xaridorgir poyabzallar, shuningdek, keda va krossovkalar ishlab chiqaryapmiz. Turkiya, Xitoy va boshqa qator rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarilgan zamonaviy dastgohlar bilan jihozlangan korxonada tayyorlanayotgan mahsulotlarimizning xaridorgirligi bizni yanada izlanish, yangicha ishlashga undaydi. Mutaxassislarimiz doimiy ravishda marketing tadqiqotlarini o‘tkazib, bozor, iste’molchilarning talab va takliflarini o‘rganib boradi. O‘rganishlarga asoslanib yangi turdagi mahsulotlarni tayyorlash, ularning qulayligi, sifati va ko‘rinishini yaxshilash borasida doimiy izlanishdamiz. Ishni tashkil etishda ilg‘or ish uslublarini qo‘llash, ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish muhim omil bo‘lmoqda. Shuning uchunmi nafaqat ichki bozorda, balki xorijda ham mahsulotlarimizga talab yuqori.

Eksport masalasiga keladigan bo‘lsak, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Tojikiston, Rossiya, Belarus, Moldova, Afg‘oniston singari 20 ga yaqin davlat bilan hamkorlik qilyapmiz. Nasib qilsa, yaqin kelajakda eksportimiz geografiyasini yanada kengaytiramiz. Bu borada Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda tadbirkorlar uchun keng imkoniyat va imtiyozlar yaratib berilayotgani muhim omil bo‘ladi. Bunday sharoit barcha tadbirkorlarni yanada samarali ishlashga ilhomlantiradi. Yurtimizda har yili 20-avgustda davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan uchrashuvi an’anaga aylandi. Bu sananing bayram sifatida nishonlanayotgani esa bizning jamiyatdagi o‘rnimizni, faoliyatimizning nechog‘liq muhimligini ko‘rsatdi.



Prezidentimiz bu yilgi ochiq muloqotdagi nutqida tadbirkorlarni qiynayotgan muammolar yechimi sifatida ularga juda ko‘plab imtiyozlar yaratilishini ma’lum qildi. Quvonarlisi, endi yakka tartibdagi tadbirkorlar, o‘zini o‘zi band qilganga ham ko‘mak berilib, ular 50-100 nafar odam ishlaydigan baquvvat korxonalar sohibiga aylantiriladi. Bu, albatta, ko‘p-lab yoshlarda tadbirkorlikka qiziqish uyg‘otishi bilan ahamiyatli. Zero, mamlakatda ishbilarmonlarning ko‘payishi yurt taraqqiyoti, aholi turmush farovonligiga xizmat qiladi. Kasbining fidoyisi bo‘lgan, faollik ko‘rsatayotganlar mehnatining o‘ziga xos rag‘bat topayotgani esa kattayu kichik soha vakillarini birdek ruhlantiradi.

Aholi bandligi va farovonligini ta’minlash yo‘lida alohida jonbozlik ko‘rsatayotgan bir guruh biznes sohasi vakillari, tadbirkorlar qatorida “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan tadbirkor” faxriy unvoni bilan taqdirlanganimdan boshim ko‘kka yetdi. Ko‘nglimdan “Tadbirkor bo‘lib kam bo‘lmadim, el-yurt orasida hurmat-e’tibor topdim. Bundayin e’tibor menga kuch, shijoat beradi. Bundan keyingi faoliyatimda ham Prezidentimiz ishonchiga monand yurtimiz ravnaqi, obodligi, xalqimiz turmush farovonligini yuksaltirish yo‘lida yanada faol ishlashga harakat qilaman” degan ezgu o‘ylar o‘tdi.

Chunonchi, mamlakatimizda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanish biz, tadbirkorlar oldidagi kechiktirib bo‘lmas vazifaga aylanadi. Zero, bugun bizdan yurtimizning iqtisodiy qudrati va eksport salohiyatini yuksaltirishda salmoqli natijalarga erishish, tashabbuskorlik, zamonaviy bilim va tajriba bilan investitsiyalarni jalb qilish, import o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatishni yanada kengaytirish talab etilyapti. Shunday ekan, biz ham tashabbusni qo‘lga olib, bor kuch va salohiyatimizni iqtisodiyotimiz ravnaqiga, u orqali dasturxonimiz to‘kinligiga munosib hissa qo‘shaylik!

*Andijon viloyati*

Islohotlar ro‘yobi



# OLIMPIYA SHAHARCHASI VA MILLIY FUTBOL MARKAZI

## O‘ZBEK SPORT FALSAFASINING YANGI “YO‘L XARITASI”, MUKAMMAL TIZIMNING IKKI BO‘G‘INI

**Azizbek YUSUPOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

Boshlanishi 1-betda

Uning qurilishiga 2022-yil 9-noyabrda davlatimiz rahbari tomonidan tamal toshi qo‘yilganda, bu yerda deyarli hech narsa yo‘q edi. Bugun esa shu maydonda butun boshli Olimpiya shaharchasi qad rostlagani bunyodkorlik kayfiyati, vaqtni tahlil qila olgan katta reja va jamoaviy mas’uliyatning jonli isbotidir.

100 gektardan ortiq maydonda barpo etilgan majmua loyihasi “CAMC Engineering” kompaniyasi tomonidan amalga oshirilgani, ish jarayonida energiyatejamkor yechimlar va ilg‘or texnologiyalar qo‘llanilgani undan foydalanishda yaroqlilik muddatini uzaytirib, xizmat sifatini ham kafolatlaydi.

Shaharchada beshta asosiy kompleks bor. Velodrom — muhandislik va dizayn uyg‘unligining namunasi: yog‘och yo‘lak qavatma-qavat yotqizilgan, trayektoriya va burilish burchaklari Xalqaro olimpiya qo‘mitasi talablariga mos, ichki harorat ham yil davomida barqaror. Hatto havo qarshiligi omillari inobatga olingani sportchining soniyalar bilan o‘lchanadigan natijasiga ta’sir qiladi. Yorug‘likning maydonga teng taqsimlanishi tomoshabinga qulaylik bersa, teletranslyatsiya uchun ham sifat belgisidir. 2200 o‘rinli tribuna himoya to‘siqlari bilan jihozlangan, maydon esa versatil: velosportdan tashqari stol tennisi va qilichbozlik musobaqalarini ham o‘tkazishga imkon beradi. Bu darajadagi velodrom mamlakatimizda ilk bor qurilgani mahalliy sport maktablari uchun yangi bosqich.

Shaharcha markazida 12 ming o‘rinli stadion joylashgan. Xalqaro turnirlar paytida bu yerda tantanali marosimlar tashkil etiladi. Asosiysi, yashil maydon va 9 qatorli yugurish yo‘lagida yengil atletikaning 48 ta yo‘nalishi bo‘yicha musobaqalar o‘tkaziladi. Jumladan, jahon chempionati, Brilliant ligasi, paraatletika bahslari, ko‘zi ojizlar o‘rtasida IBSA o‘yinlarini tashkil etish mumkin. Stadiondagi to‘rt qavatli binoda terma jamoalar mutaxassislari va sport federatsiyalari faoliyat yuritadi. Boshqa kunlarda stadion mahalliy o‘quv-yig‘inlar, amaliy mashg‘ulotlar va dual ta’lim uchun foydalaniladi. Bundan anglashiladiki, inshootlar faqat musobaqa paytida emas, kundalik hayotda ham aholiga xizmat qiladi.

Ulkan suv sporti saroyi ham zamonaviy va qulay. Unda 25x50 metrli suzish va 25x20 metrli suvga sakrash havzalari, mashg‘ulotlar uchun basseyn va trenajyor zallari bor. Barcha sharoitlar va o‘lchamlar xalqaro olimpiya standarti talablariga javob beradi. Yaqinda “World Aquatics” federatsiyasi delegatsiyasi majmuani ko‘rikdan o‘tkazdi va buni tasdiqladi. Ya’ni bu yerda suzish, suvga sakrash, sinxron suzish, suv polosi bo‘yicha qit’a va jahon chempionatlari, Olimpiya dasturidagi nufuzli musobaqalarni tashkil etish imkoniyati bor. Ularni bir paytning o‘zida 2 mingdan ziyod muxlis tomosha qilishi mumkin.

Jamoaviy va yakkakurash sport turlari majmualari ham xalqaro talablar darajasida bunyod etilgan. Ularning har biri uch qavatli, 2 ming o‘rinli. Jumladan, birinchisida voleybol, basketbol va gandbol bo‘yicha mashg‘ulot va xalqaro musobaqalarni o‘tkazish mumkin. Yakkakurashlar majmuasi dzyudo, boks, taekvondo kabi sport turlarini rivojlantirishga asos bo‘ladi. Olimpiya shaharchasida futbol, voleybol, tennis, chim ustida xokkey, yengil atletika kabilar bo‘yicha 15 ta ochiq maydon ham barpo etildi. Bundan tashqari, 400 o‘rinli paralimpiya yotoqxonasi, sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi qurilishi yakuniy bosqichda.

Shaharcha atrofida transport, aloqa, kommunal tarmoqlar yangilandi, yashil hududlar barpo etildi. Bu yerdagi har bir detal — piyoda yo‘laklaridan tortib, veloyo‘laklar va inklyuziv kirish chiqish yechimlarigacha — qo‘shilganda, zamonaviy shaharsozlik talablariga javob beradigan ekotizim hosil qiladi.

Ijtimoiy foydasi yanada keng. Prezidentimiz tomonidan berilgan stol tennisini har bir maktab va mahallada ommalashtirish, mahalliy anjomlar ishlab chiqarishga doir topshiriqlar aynan shu infratuzilmaning mantiqiy davomi. Kichik bir mahalladagi raketka va stol — xalqaro maydondagi rekordlar silsilasining boshlang‘ich nuqtasi. Ommaviy sport rivojlansa, sog‘lom turmush tarzi odatga; odat sog‘liqqa uyg‘un bo‘lsa, sog‘lom avlod iqtisodiyotning eng ishonchli kapitaliga aylanadi.

— Iqtisodiy ta’siri ham sezilarli: xalqaro musobaqalar turistik oqimni oshiradi, mehmonxona, transport, xizmat ko‘rsatish sohalaridagi aylanmani jonlantiradi, yangi ish o‘rinlari yaratadi. Mamlakat nufuzi, sport diplomatiyasi, mediae’tibor — bularning barchasi investitsiya muhitining yaxshilanishiga xizmat qiladi. Eng muhimi, bu shaharcha orqali minglab bolalar sportni yaqindan ko‘radi, katta maqsadga yo‘naltirilgan ishlarni his etadi, — deydi O‘zbekiston milliy olimpiya qo‘mitasi bosh kotibi Oybek Qosimov. — Ma’lumki, 2024-yilda Parijda o‘tgan Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida yurtimiz sportchilari muvaffaqiyatli ishtirok etib, umumjamoa hisobida har ikki yo‘nalishda 13-o‘rinni egallagan edi. Endi olimpiya harakatini yanada rivojlantirish, kelgusidagi musobaqalarda natijalarni oshirish maqsad qilingan.

> **Markaz bir vaqtning o‘zida 6 ta terma jamoaning o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlarini qabul qila oladi. Inshoot tarkibiga stadionlar, o‘quv binolari, sport zallari, mehmonxona, shuningdek, plyaj futboli maydoni, futzal maneji, basseyn va reabilitatsiya bo‘limi kiradi. Bu yechimlar sportchining kundalik mashg‘ulotidan tortib, tiklanishigacha uzluksiz siklni ta’minlaydi, natijada vaqt tejaladi, sifat oshadi, xavfsizlik kafolati mustahkamlanadi.**



Hakim Yo‘ldoshev olgan suratlar.

Prezidentimizning joriy yil 8-iyuldagi qarori bilan O‘zbekiston sportchilarini 2028-yilgi Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga tayyorlash dasturi qabul qilindi. Bu yo‘nalishdagi ishlarni tizimli tashkil etish maqsadida Milliy olimpiya qo‘mitasining 14 ta hududiy bo‘limi tashkil etildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari Olimpiya harakatini rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus vakili etib belgilandi. Har bir hududga Sport vazirligi va Olimpiya qo‘mitasidan mas’ullar biriktirildi. Asosiy maqsad yuqori sport natijalariga faqat bitta Olimpiadada emas, doimiy va mustahkam zamin yaratish.

Iqtidorli sportchilarni eng quyi bo‘g‘indan boshlab saralash va professional etib tayyorlash uchun uch bosqichli “Yangi O‘zbekiston Olimpiya cho‘qqilari” musobaqasi yo‘lga qo‘yildi. Uning final bosqichi har yili Olimpiya shaharchasida “Prezident Olimpiadasi” sifatida o‘tkaziladi. G‘olib va sovrindor sportchilar Olimpiya markazlariga jalb etilib, professional tayyorlanadi. Respublika olimpiya va paralimpiya markazining faoliyati milliy terma jamoalar zaxirasini yaratishga qaratiladi. O‘quv-mashg‘ulotlar o‘tkazib borish uchun Olimpiya shaharchasi inshootlari markazga beg‘araz asosda biriktiriladi.

Shuningdek, atletlar zaxirasini kengaytirish maqsadida xususiy sport klublari faoliyati takomillashtirilib, rasmiy musobaqalardagi ishtiroki ta’minlanadi. Yuqori natija ko‘rsatgan sportchilar milliy terma jamoalarga qabul qilinishi mumkin bo‘ladi.

— Olimpiya shaharchasi sport ilm-fani markazi sifatida ham yurtimizda o‘zgacha o‘rin egalladi. Bu yerda Sport vazirligi, Antidoping agentligi, Davlat sport akademiyasi, Jismoniy tarbiya ilmiy-tadqiqot instituti, Sport turlarini rivojlantirish markazi kabi muassasalarning bir makonda joylashgani bejiz emas. Zero, sportning kelajagi faqat natija bilan emas, uning ilmiy asosi, tibbiy ta’minoti va amaliyoti integratsiyalashgandagina mukammal bo‘ladi, — deydi O‘zbekiston taekvondo (ITF) milliy assotsiatsiyasi vitse-prezidenti Otabek Jiyanboyev. — Shaharchadagi sport tibbiyoti markazi orqali sportchilarning salomatligi muntazam nazorat qilinadi, ularning tiklanish jarayonlari esa zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etiladi. Bu sportchini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, paralimpiya yotoqxonasi imkoniyati cheklangan sportchilar uchun alohida qulayliklar yaratib, mamlakatimizda inklyuziv sportning rivojlanishiga yo‘l ochmoqda. Bu qadam sportimizda tenglik, adolat va hamjihatlik g‘oyalarining amaldagi ifodasi desak mubolag‘a bo‘lmas. Olimpiya shaharchasi mamlakat sport siyosatining uzoqni ko‘zlagan, strategik ahamiyatga ega yirik loyihasi sifatida har bir yo‘nalishda yangi “so‘qmoq yo‘li”ni boshlab bermoqda. U yerda sport natijasi bilan birga sport madaniyati, qadriyatlari, ruhiyati va yosh avlod tarbiyasi ham uyg‘un tarzda rivojlanishi odamni xursand qiladi.

Nazarimda, “Yangi O‘zbekiston” bog‘i, ma’rifat maskanlari majmuasi, Olimpiya shaharchasi bir butunlikda yangi O‘zbekistonning qiyofasini tashkil etadi. Chunki sport bilan shug‘ullanadigan shaxs nafaqat jismonan, balki ma’nan ham chiniqadi. Bu ilmiy taraflama isbotlangan. Donishmandlar bot-bot takror etgan. Xususan, “Mutanosiblikni saqlash, go‘zal va sog‘lom bo‘lish uchun faqat fan va san’at sohasidagi bilimlarning o‘zi kifoya qilmaydi, buning uchun umr bo‘yi badantarbiya va gimnastika bilan shug‘ullanish talab etiladi”, deydi Aflotun.

Uch yil avvalgi bo‘sh maydondan bugungi mukammal sport klasterigacha bo‘lgan yo‘l, shunchaki loyiha, mablag‘ va materiallar haqidagina emas. Bu, avvalo, yurtning o‘z kuchiga ishonchi, zamonaviy standartlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan shayligi, raqobatda faqat ishtirokchi emas, mezbon ham bo‘lish mumkin degan da’voidir. Olimpiya shaharchasi — sog‘lom hayotga da’vat, mehnat va intizom madaniyati, xalqaro sport xaritasidagi yangi yirik nuqta. Shu bois, u yerda yangraydigan har bir start, har bitta qarsak bugungi va ertangi natijalar, g‘alabalar ohangiga esh bo‘ladi.

Olimpiya shaharchasi yurtimizda sportning turli yo‘nalishlarini birlashtirib, uning zamonaviy qiyofasini namoyon etar ekan, shunga monand ravishda alohida sport turlari uchun ham o‘ziga xos quvvat maskanlari barpo etilmoqda. Sportning umumtaraqqiyoti hamjihatlik talab qilsa-da, har bir tarmoqning o‘z yo‘li va timsoli ham bo‘lishi zarur. Shu ma’noda, futbol xalqimiz ruhiyatida alohida o‘rin tutadigan, yurtimizdagi eng ommaviy va ta’sirchan sport turi sifatida yashil maydonlardan ham kengroq, kattaroq infratuzilmani talab etardi. Millionlab muxlislar orzu va ehtirosini o‘z ichiga sig‘dira oladigan, yoshlar uchun tajriba maktabi, sportchilar uchun esa tayyorgarlik qo‘rg‘oni vazifasini bajaradigan shunday maskan zarur edi. Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, Milliy futbol markazi barpo etildi va u Olimpiya shaharchasi bilan uyg‘un holda mamlakatimiz sportini yangi bosqichga olib chiquvchi mukammal tizimning bir bo‘g‘iniga aylandi.

Davlatimiz rahbari ikki yil oldin Yuqori Chirchiq tumaniga tashrif buyurib, mavjud stadionga tutash hududda zamonaviy majmua bunyod etish zarurligini aytgan edi. Ko‘p o‘tmay, 2023-yil 3-noyabrda “Futbol-ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish hamda xalqaro standartlarga mos keladigan futbol infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Prezident qarori imzolandi. Bu hujjat yangi markazning konsepsiyasiga huquqiy va tashkiliy tayanch bo‘lib xizmat qildi.

— Yaqin yillargacha O‘zbekiston terma jamoalari tayyorgarligi asosan Toshkentdagi “Bunyodkor” akademiyasi maydonlari va turli hududiy stadionlarda amalga oshirilardi. Bir vaqtning o‘zida bir nechta terma jamoani tayyorlash imkoniyati cheklangan, futbol mutaxassislari tayyorgarligi ham to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan. Murabbiy va hakamlar kurslari alohida o‘tkazilgani bilan ilmiy-tadqiqot yoki tahlil markazlari yo‘q edi. Zamonaviy seleksiya tizimi ham yo‘lga qo‘yilmagani uchun iqtidorli yoshlarni saralash murakkab kechardi. Shuningdek, sport tibbiyot sohasida ham katta bo‘shliqlar bo‘lgan. Jarohat olgan futbolchilar ko‘pincha xorijda davolanishga majbur edi. Zamonaviy trenajyorlar, krioterapiya kabi tiklanish usullari mavjud bo‘lmagan. VAR tizimi ayrim stadionlarda qo‘llanilgan, ammo markazlashgan kuzatuv majmuasi yo‘q edi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan qisqa fursatlarda barpo etilgan Milliy futbol markazi barcha yo‘nalishlarni birlashtiruvchi zamonaviy platforma sifatida ish boshladi, — deydi O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi birinchi vitse-prezidenti Ravshan Ermatov. — Markaz bir vaqtning o‘zida 6 ta terma jamoaning o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlarini qabul qila oladi. Inshoot tarkibiga stadionlar, o‘quv binolari, sport zallari, mehmonxona, shuningdek, plyaj futboli maydoni, futzal maneji, basseyn va reabilitatsiya bo‘limi kiradi. Bu yechimlar sportchining kundalik mashg‘ulotidan tortib, tiklanishigacha uzluksiz siklni ta’minlaydi, natijada vaqt tejaladi, sifat oshadi, xavfsizlik kafolati mustahkamlanadi.




Majmuada futbolchi va mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladigan to‘rtta yadro tuzilma tashkil etilgan: Futbol mutaxassislarini tayyorlash va ilmiy-tadqiqot markazi, Futbol terma jamoalari tayyorgarlik markazi, Respublika futbol akademiyasi hamda Sport tibbiyoti va reabilitatsiya markazi. Shu bilan birga, “VAR markazi”ning yo‘lga qo‘yilishi boshqaruv, tahlil va hakamlik madaniyatini yangi pog‘onaga ko‘taradi — natijalar oshkora, qarorlar tezkor, ma’lumotlar esa metrikalarga tayanadi. Tibbiy-reabilitatsiya bloki zamonaviy xorijiy uskunalar bilan jihozlangani, ilg‘or usullar o‘zlashtirilgani futbolchilarga qisqa fursatda o‘zini tiklash imkonini beradi. Bu, ayniqsa, yuqori zichlikdagi musobaqa taqvimlarida jarohat xavfini pasaytirish va maydondagi to‘g‘ri yuklamalarni hisoblash uchun hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Akademiyada yosh iste’dodlarni aniqlash va tarbiyalash tizimi xalqaro qoidalarga mos ravishda yo‘lga qo‘yilgan: Argentina, Vengriya, Xorvatiya kabi mamlakatlarning shu soha mutaxassislari jalb etilgani o‘quv dasturlarining mazmunini boyitadi, trenerlik, hakamlik, seleksiya va tahlil sohalarida integral qobiliyatlarni shakllantiradi. Bu yosh futbolchining texnikasidan tashqari, fikr tezligi, qaror qabul qilish madaniyati va raqobat ruhini ham kuchaytiradi.

— Yigirma yildan beri shu sohada ishlayman. Malakali shifokorlar, fizioterapevtlar, to‘g‘ri ovqatlanish bo‘yicha mutaxassislar, sport psixologlari va murabbiylar bir jamoa, yagona tizim sifatida faoliyat yuritishini endi ko‘rishim. Birgalikdagi bunday yondashuv natijasida futbolchi individual dastur asosida sog‘lomlashtiriladi. Milliy futbol markazida bu yondashuvlar xalqaro tajribaga tayangan holda amaliyotga tatbiq etilmoqda, — deydi Tibbiyot markazi bosh shifokori Abror Pirriyev. — Masalan, futbolchilarda eng ko‘p uchraydigan tizza va tizza atrofi jarohatlari uchun maxsus mashqlar va reabilitatsiya jarayonlari ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, bosh jarohatlaridan keyingi kuzatuv va diagnostika ham muntazam nazorat qilinadi. Bu esa sportchilar salomatligini uzoq muddatli saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro sport markazlarida qo‘llanilayotgan innovatsion texnologiyalar — robotlashtirilgan jarrohlik, mushaklarni tiklashda regenerativ davolash usullari, biomexanik tahlil kabi yo‘nalishlar Milliy futbol markazida ham bosqichma-bosqich joriy etilyapti. Tadrijiy, mukammal davolanish, muntazam yo‘lga qo‘yilgan tibbiy tekshiruvlar, ilmiy tadqiqotlar, birinchi navbatda, futbol bo‘yicha saviyamizni yana ko‘taradi. Bu jismoniy tarafdan organizmini kuchaytirish imkonini taqdim etsa, ruhiy jihatdan futbolchilarning o‘z imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishiga ko‘maklashadi. Shu tarzda Milliy futbol markazida tibbiy xizmatlar sportchilarning salomatligi va faoliyati uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu nafaqat bugungi futbolchilarning, balki kelajak avlod sportchilarining ham sog‘lom va samarali faoliyatini ta’minlaydi.

— So‘nggi yillarda futbol ekotizimi bosqichma-bosqich yaxshilandi: bolalar sport maktablaridan tortib akademiyalarga, klublardan milliy chempionatgacha butun zanjirdagi standartlar qayta ko‘rib chiqildi, — deydi O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi vitse-prezidenti Odil Ahmedov. — Natija ajoyib: mamlakatimiz tarixida ilk bor milliy terma jamoamiz Jahon chempionatiga yo‘l oldi — bu endi sportdan, futboldan kattaroq narsa, beqiyos voqelik. Ushbu yutuq tizimiy yondashuv samarasi ekani, salohiyat to‘g‘ri yo‘naltirilsa, yuqori maqsadlar muddatidan oldin ham amalga oshishini ko‘rsatdi. Yoshlar frontida ham shonli sahifa yozildi: aprel oyida Saudiya Arabistonida bo‘lib o‘tgan Osiyo kubogida U-17 termamiz finalda mezbonlarga qarshi 2:0 hisobida g‘alaba qilib, qit’a chempioni bo‘ldi va Jahon chempionatiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi. Bu g‘alaba intizom, jamoaviylik va xarakterning eng ravshan isboti, shuningdek, markaz kabi platformalarga qilingan investitsiyalarning tezkor qaytimi. Galdagi maqsadlar ham talaygina. Mashg‘ulot metodikasida fan va ma’lumotlar tahlilini kengaytirish, yoshlar seleksiyasini hududlar kesimida chuqurlashtirish, qizlar futboli va inklyuziv loyihalarni kuchaytirish, sport tibbiyotida profilaktik yondashuvni standartga aylantirish. Har bir bolaga qulay maydon, har bir ustozga zamonaviy asbob-uskuna, har bir jamoaga aniq me’yor va adolatli raqobat muhiti yaratish, ehhe, orziqib ketadi odam.

Niyatimiz Milliy futbol markazi bir necha yilda terma jamoalarimiz uchun kadrlar konveyeriga aylansin: akademiyadan klubga, klubdan termaga tabiiy ko‘tarilish trayektoriyasi shakllansin. Jamoaviy ruh mustahkamlansin, shunda mamlakatning ulkan orzusi — jahon sahnasida o‘z o‘yinini namoyish etish barqaror an’anaga aylanadi.



Agrar tarmoq



# FARG‘ONA MEVALARI
## DUNYO BOZORIDA BRENDGA AYLANMOQDA

**Yoz, pishiqchilik mavsumi. Bozorlarimiz meva, poliz va sabzavotlar bilan to‘lgan. Quyoshli zaminimizda yetishtirilgan sarxil mahsulotlarga talab ichki va tashqari bozorda yuqori. Joriy yilning shu kuniga qadar farg‘onalik mirishkorlar yetishtirgan 110 ming tonnadan ortiq sarxil meva Rossiya, Latviya, Xitoy, Belarus, Malayziya singari 35 dan ziyod davlatga eksport qilindi.**

Sohaga e’tibor, yaratilayotgan imkoniyatlar tufayli viloyatda meva, sabzavot yetishtirish va eksport hajmi yil sayin oshib boryapti. Buni raqamlarda ham ko‘rish mumkin. Misol uchun, 2023-yilda 220 million dollarlik meva va sabzavot eksport qilingan bo‘lsa, o‘tgan yilda 327 million dollarga yetdi. Sarxil mevalar ta’mi, chiroyli ko‘rinishi va muhimi, ekologik tozaligi bilan e’tibor tortmoqda.

Bundan yetti-sakkiz yil avval ekologik toza, tabiiy darmonlarga boy meva-sabzavotning atigi 5-6 foizi eksport qilinardi. Pishiqchilikda hosilni uzoq saqlash imkoni yo‘qligi sabab fermer va dehqon xo‘jaliklari, aholi tomorqalarida yetishtirilgan bog‘dorchilik mahsulotlarining asosiy qismi suvtekinga sotilgan. Bu gaplar endi o‘tmishga aylandi. Keng paykallar uzra yastangan bog‘u rog‘lar bugun hayrat va havasingizni keltiradi.

Farg‘ona viloyatida 42 ming 300 gektar bog‘ va tokzor bor. Ularning asosini intensiv bog‘lar tashkil etadi. Keyingi to‘rt yilda 6400 gektar bog‘ va 3 ming gektar tokzor barpo etildi. Joriy yil bahorda 4,5 ming gektar intensiv bog‘, 100 gektar tokzor tashkil etilib, 3 mingga yaqin yangi ish o‘rni yaratildi.

Ayniqsa, tizimli ishlar natijasida hududlarda uzumzorlar kengayib bormoqda. Viloyatda 4,5 ming gektar uzum bog‘lari mavjud. Shundan 2400 gektari Oltiariq tumanida joylashgan.

— Uzum Oltiariqning o‘ziga xos brendiga aylandi, — deydi tuman hokimi o‘rinbosari Iqboljon G‘ofurov. — Mavjud 72 ta mahalladagi 40 mingdan ortiq xonadonning deyarli har birida uzum yetishtiriladi. Ayni kunlarda Oltiariq bog‘larida pishib yetilgan sarxil uzum hosili eksportga tayyorlanmoqda.

Tumandagi “Xayrullo Bahrom Boymatov” fermer xo‘jaligi uzumzorida dunyo bozorida xaridorgir serhosil navlarni mahalliylashtirish bo‘yicha izlanishlar qilinmoqda. Salkam 100 gektar tokzordan husayni, kelinbarmoq, rizamat ota, mersedes kabi 20 navdagi uzumdan yiliga 3 ming tonna hosil olinadi. Bog‘ yonida 2 ming tonna sig‘imga ega sovitkichli ombor qurilgan. Mahsulot dastlab shu yerda saqlanib, saralangach, eksport qilinadi.

Mavsum jarayonida tadbirkorlarga yaqindan ko‘maklashish maqsadida Farg‘ona viloyati O‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi tomonidan Eksportga ko‘maklashish markazi ochilgan. Markazda karantin inspektorlari fitosanitariya sertifikatini rasmiylashtiradi, mahsulotlarni kichik laboratoriyada tekshiruvdan o‘tkazadi, yuk mashinalari zararsizlantiriladi. Shu bois, ish unumdorligiga daxl qilmaslik uchun markazda kunu tun xizmat ko‘rsatiladi. Bu tadbirkorlar vaqtini tejash, barcha hujjatlarni bir joyda rasmiylashtirish imkonini beryapti.

Beshariq tumanidagi “Trust agro” MCHJ tashabbusi bilan Adirobod massivida mevani qayta ishlash korxonasi ish boshlaganiga ko‘p bo‘lgani yo‘q. Lekin dunyo bozorida tabiiy ta’m va foydali vitaminlarga boy quruq mevaga talab kun sayin ortib bormoqda. Hozir umumiy qiymati 2 million AQSH dollardan ortiq, ming tonnaga yaqin quruq meva Rossiya, Xitoy, Belarus, Qozog‘iston, Litva va Polshaga eksport qilindi.

— Xitoydan yuqori unumli jihozlar olib kelganmiz, — deydi loyiha muallifi Topvoldi Madrahimov. — Bu yil davomida 5 ming tonnadan ortiq quruq mevani zamonaviy texnologiyalar yordamida saralab, danagidan ajratib, qadoqlash imkoniyatini bermoqda. Tumanimizda bu yo‘nalishda zamonaviy ishlab chiqarish korxonasi yo‘q edi. Yangi loyiha xom-ashyo emas, tayyor mahsulot ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirdi, sifatini oshirdi. Muhimi, dehqon manfaatdorligi oshdi. Ayni kunda qo‘shimcha tarmoqlarni ishga tushirish borasida ishlayapmiz. Bu yerda 60 dan ortiq doimiy va kasanachilik asosida 200 ta ish o‘rni yaratdik.

Beshariq tumanida 4 ming gektardan ortiq mevali bog‘ bor. Yangi loyiha mavjud bog‘lardan samarali foydalanish, aholi bandligini ta’minlash, mahsulot yetishtirish, qayta ishlash va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilayotir.

— Uyimizga yaqin hududda zamonaviy korxona tashkil etilgani ayni muddao bo‘ldi, — deydi “Rapqon” mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi Nafisa Ortiqova. — Uy yumushlari, farzand tarbiyasidan ortib, boshqa joyga ishga borishga imkon topa olmayotgandim. Mahalla faollari shu yerda ish borligini aytishdi, kelib adashmagan ekanman. Uch million so‘mga yetkazib maosh olyapmiz, tekin tushlik, uzoqdan ishga borib-kelayotganlar uchun transport xizmati yo‘lga qo‘yilgan.

Eksport salohiyatini oshirish uchun yangi yer o‘zlashtirish orqali bog‘ yaratish ham yaxshi an’anaga aylanib boryapti. Bunda “O‘z-Segang” qo‘shma korxonasining alohida o‘rni bor. Korxona tashabbusi bilan Quva tumani va Quvasoy shahrida qayta o‘zlashtirilgan yerlarda qariyb ming gektar intensiv bog‘ barpo etildi. Ekoturizm va logistika markazlari ishga tushirilib, 200 ta doimiy, 3 mingdan ortiq mavsumiy ish o‘rni yaratildi. Bu yerda yiliga 16 ming tonna qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilish quvvati mavjud. Uch ming tonna hajmli muzlatkichlar hamda zamonaviy logistika markazi tashkil etilgan. Italiya, Turkiya, Janubiy Koreya va Xitoydan ilg‘or texnologiyalar keltirilgan. Bugunga qadar ikki ming tonnadan ortiq gilos, o‘rik, shaftoli eksport qilindi.

— O‘tgan yili fermer xo‘jaliklari va xonadonlardan qariyb ikki ming tonna gilos, shaftoli va anor yig‘ib olib, 5 million dollardan ziyod eksport qilganmiz, — deydi investor San Von Yun. — Bu yil eksport miqdorini ikki hissa ko‘paytiryapmiz. Faqat meva yetishtirish bilan cheklanib qolayotganimiz yo‘q. Italiya, Turkiya, Janubiy Koreya va Xitoydan ilg‘or texnologiyalar keltirib, mahsulotni saqlash, qayta ishlash, qadoqlash yo‘nalishlarida yangi loyihalarni ishga tushiryapmiz. Eksportga tayyorlanayotgan mevalarni korxonamizdagi muzlatkichlarda saqlab, uskunalar yordamida rangi, katta-kichikligiga qarab ajratib olamiz. Zararkunandalarga qarshi dezinfeksiya qilish (fumigatsiya) uchun maxsus xona mavjud. Umuman, karantin inspektorlari importyor davlatlar talabiga mos ravishda ishlamoqda. Aytish mumkinki, serquyosh mamlakatingiz zaminida yetilgan meva va sabzavotlar xorijda xaridorgir.

— Joylarda uzum, anor, malina, limon va boshqa meva hamda sabzavot yetishtirishda o‘ziga xos tajribalar bor, — deydi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoatni rivojlantirish agentligi Farg‘ona viloyati bo‘limi boshlig‘i Shermuhammad No‘monjonov. — Farg‘ona tumanida malina yetishtirish, qayta ishlash, ko‘chatchilik, Uchko‘prik tumanida limonchilik tarmoqlarini rivojlantirish, Oltiariqda uzumchilikdan tashqari kartoshka yetishtirish, Quvasoyda intensiv usulda gilos bog‘lari, Quvada anor va uzumchilik, So‘xda shaftoli va o‘rik yetishtirish, Farg‘ona shahrida sabzavotchilik tarmoqlarini kengaytirish yo‘lida istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda. Yangi tashabbuslar qo‘llab-quvvatlangan holda sanoatlashgan bog‘ va tokzorlar yaratish tajribasi ommalashib boryapti. Joriy yilning o‘zida bu yo‘nalishlarda tashkil etilgan bog‘lardan 300 tonnadan ortiq sarxil mevalar terib olindi.

Farg‘ona tumani “Do‘stlik” MFY hududida “Fergana Agro Cluster and Logistics” MCHJ tomonidan 150 gektar maydonda xorijiy investitsiya ko‘magida yangi intensiv bog‘ qilinmoqda. Loyiha qiymati 2,5 million dollar bo‘lib, bu mablag‘ turkiyalik investor Ahmad Sarkangul tomonidan kiritilgan.

— Loyiha ishga tushgach, 200 ta yangi ish o‘rni yaratiladi va birinchi yilning o‘zida 5,5 million dollarlik mahsulot eksport qilinadi, — deydi investor. — Intensiv bog‘lar an’anaviy bog‘larga nisbatan 3-4 baravar ko‘p va sifatli hosil beradi. Qolaversa, suvni 30-40 foiz tejaydi. Buning hisobiga mahsulot tannarxi arzonlashadi, manfaatdorlik yuqori bo‘ladi.

Quva, Oltiariq tumanlari, Qo‘qon shahrida eksport shtabi faoliyat yuritmoqda. Xorijga jo‘natilayotgan mahsulotlarning asosiy qismi shu yerda rasmiylashtirilib, to‘g‘ridan to‘g‘ri eksportga chiqarilyapti. Shtabda karantin, “O‘zbekekspertiza”, bojxona tashkilotlari vakillari va deklarantlar ishlaydi. Oltiariq tumanida ho‘l meva mahsulotlari ulgurji bozori tashkil etildi. Bozorda mahsulot tayyorlab beruvchi vositachi-brokerlar xizmat ko‘rsatmoqda. Ular dehqon va aholi mahsulotlarini dalaning o‘zida yoki bozorga olib kelib, naqd pulga sotish imkoniyatiga ega. Bu yerda mahsulotlar saralanib, maxsus omborxonalarda sovitilgach, avtofuralarga yuklanadi.

— Joriy yil 30-iyul kuni Prezidentimiz raisligida meva-sabzavot va oziq-ovqat eksportini ko‘paytirish masalalari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida shu yo‘nalishda ishlayotgan sohibkorlarga qo‘shimcha imtiyoz va imkoniyatlar berildi, — deydi Farg‘ona viloyati O‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Eldor Tursunqulov. — Xususan, zamonaviy qadoqlash loyihalarini ishga tushirish, dukkakli ekin ekish-yig‘ish texnikasini 15 foizgacha subsidiyalash, kredit stavkasining 10 foizdan oshgan qismini qoplab berish amaliyoti joriy etilmoqda. Qolaversa, ichki bozor bilan bir qatorda eksportga mahsulot yetishtirish majburiyatini olgan issiqxonalarni qishki mavsumda gaz bilan ta’minlash borasidagi qulayliklar meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari eksportini ko‘paytirish, yangi zaxiralarni ishga solishda katta ahamiyatga ega. Eksport salohiyatini oshirish har bir hudud rahbarining ustuvor vazifasidir. Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, bu milliy va mintaqaviy tashabbuslarni ilgari surish, yangi loyihalarga mablag‘ jalb qilishda biz uchun katta imkoniyatdir. Demak, mazkur imkoniyatdan har bir hudud unumli foydalanishi strategik vazifasiga aylanishi zarur.



Sherzod Qoraboyev olgan suratlar.

Farg‘ona viloyati O‘zbekistonning eng serhosil, agroiqtisodiy salohiyati yuqori hududlaridan biridir. Mavjud issiqxonalar, bog‘lar, tokzorlar, meva-sabzavot klasterlari va zamonaviy qadoqlash korxonalarini to‘liq safarbar qilmasdan turib, eksportni ko‘zlangan darajaga chiqarib bo‘lmaydi. Bu borada tuman hokimliklari va tadbirkorlar, bog‘bonlar bilan o‘zaro hamkorlikda aniq eksport rejalari, mahsulot yetishtirish jadvallari va xorijiy bozorlar bilan shartnomalarni tizimli asosda yo‘lga qo‘yishga e’tibor berilyapti.

Farg‘ona viloyati hokimligi, O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi, O‘zbekiston eksportchilari uyushmasi hamda O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi — UzTest bilan hamkorlikda “Meva-sabzavot mahsulotlari eksport hajmini oshirishda zamonaviy qadoqlashning o‘rni” mavzusida ochiq muloqot, amaliy suhbatlar o‘tkazish an’anaga aylangan. Unda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti bilan shug‘ullanadigan korxona rahbarlari, dehqon-fermerlar va tadbirkorlar faol ishtirok etmoqda. Quvonarlisi, mavjud muammolarga shu yerning o‘zida yechim topilyapti. Bu yo‘nalishda “daladan eksportyorgacha” tamoyili asosida ishlanyapti. Ruxsat berish va sertifikat hujjatlarini rasmiylashtirish bilan bog‘liq tizim to‘liq elektronlashtirildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat yurituvchi subyektlar bilan tuziladigan shartnomalar onlayn-oferta usulida rasmiylashtirilmoqda. Bu mahsulot ekish, parvarishlash va eksportga chiqarish bilan bog‘liq barcha jarayonlar uzviyligini ta’minladi. Xaridor ekin turi, yetishtirishdagi agrotexnik tadbirlar, hosilni terib olish, qadoqlash, qutilarga joylash, yuklash bilan bog‘liq barcha jarayonlarni bevosita kuzatib borish imkoniyatiga ega.

Meva-sabzavotchilik tarmoqlari rivojlangan 13 ta hududda eksportchilar uyushmasi tashkil etildi. Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda xorij tillarini yaxshi o‘zlashtirgan salohiyatli yoshlar eksportchi tadbirkorlarga biriktirib berilyapti. Viloyat O‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasiga Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish xalqaro jamg‘armasi grant mablag‘lari hisobidan umumiy qiymati 164 ming dollar bo‘lgan zamonaviy fitosanitariya, o‘simliklar va mevali daraxtlar kasalliklarini aniqlash laboratoriyasi jihozlari olib kelindi. Yangi uskunalar o‘simliklarga zarar keltiruvchi, oddiy qurilmalarda aniqlab bo‘lmaydigan virusli va bakteriologik kasalliklarni erta aniqlashda qo‘l kelyapti.

Quvasoy shahri Sufon qishlog‘idagi “Ko‘paysinobod” ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligida intensiv usulda yaratilgan bog‘da o‘rik, shaftoli, behi, olma, olxo‘ri, nok kabi daraxtlar baravj rivojlanmoqda. Bog‘ning asosiy qismi ayni kunlarda hosilga kirgan.

— O‘n uch gektar yerda 30 xilga yaqin mevali daraxt parvarishlayapmiz, — deydi fermer xo‘jaligi rahbari Shokirjon Qorayev. — Intensiv bog‘ tashkil qilishning o‘ziga xos afzalliklari bor. Misol uchun, an’anaviy usulda daraxtlar orasi anchayin keng bo‘lishi kerak. Intensiv usulda esa ularning oralig‘i 1-1,5 metrni tashkil qiladi. Ya’ni 1 gektar maydonda 200-250 emas, balki 1500-1700 tupgacha nihol o‘tqaziladi. Natijada bog‘dan olinadigan hosildorlik 3-4 barobar yuqori bo‘ladi. Daraxtlarga bahorgi-kuzgi ishlov berish, butash, zararkunandalarga qarshi kurashish, hosilni yig‘ishtirish juda muhim omillardan.

Fermer xo‘jaligida 5 gektar maydonda tomchilatib sug‘orish yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa suvni iqtisod qilishda qo‘l kelmoqda. Serhosil va mevasi xaridorgir bo‘lgan pakana va yarim pakana navlarni ko‘paytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

— Dunyo bozorida mevalarning faqat ta’mi emas, shakli, rangi, tiniqligi ham katta ahamiyatga ega. Shu bois, pakana daraxtlarni ko‘proq ekish tavsiya etilyapti, — deydi olmazor oralab yurgan mirishkor Shokirjon Qorayev. — Bunday navli nihollarning ayrim turlari ekilgan yilning o‘zidayoq meva berishi mumkin. Baland bo‘ylilarda esa bu jarayon 4-8 yilgacha cho‘ziladi. Pakana daraxtlar to‘rtinchi yildan har yili barqaror hosil bera boshlaydi. Baland bo‘yli daraxtlar borasida bunday deb bo‘lmaydi. Bir yil shig‘il meva solsa, keyingi yilda “dam oladi”. Ko‘chatlarni ekishda ularning hosildorligidan tashqari bozorgirligiga ham e’tibor beryapmiz. Aksariyat navlarni mahalliy payvandtaglarga o‘zimiz ulaganmiz. Natija yaxshi, bu yil 300 million so‘mga yaqin daromad olishni ko‘zlab turibmiz.

Viloyatda ko‘chat yetishtirishning intensiv usullaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ko‘chatchilik yo‘nalishida ishlayotgan fermer xo‘jaliklari tomonidan yarim pakana, pakana mevali ko‘chatlar yetishtirish yo‘lga qo‘yilgani chetdan ko‘chat olib kelish hajmini 80 foizgacha qisqartirdi.

— Davlatimiz rahbarining “Tomorqa yer egalari va dehqon xo‘jaliklari faoliyatida zamonaviy tashkiliy tizimni joriy qilish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bu boradagi ishlar ko‘lamini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tardi. Unga ko‘ra, Fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi, — deydi Quva tumanidagi “Tomorqa yer uchastkalarini rivojlantirish ilmiy-amaliy markazi tomorqa xizmati” MCHJ rahbari Xursanoy Islomova. — Innovatsion agrotexnologiyalarni joriy etish, zamonaviy issiqxonalar tashkil qilish, intensiv bog‘larni ko‘paytirish hamda infratuzilmani yaxshilash maqsadida jamg‘arma hisobidan 6 milliard so‘m ajratildi. Markaz tasarrufidagi 395 gektar bog‘ning samarasiz va kam hosilli 168,8 gektari intensiv boqqa aylantirildi. Ilmiy-amaliy tajribalar uchun kolleksiya navlari 230 turga yetkazildi. In-vitro laboratoriyasida 150 ming tup yangi uzum va mevali ko‘chat, limon, manzarali daraxtlar, gullar hamda boshqa ko‘chatlar parvarishi yo‘lga qo‘yildi.

Markazda tinglovchilarga zamonaviy qulayliklar yaratish maqsadida ma’muriy va o‘quv binosi hamda yotoqxona qayta ta’mirlandi. Yangi oshxona binosi qurib bitkazildi. Xitoy va Janubiy Koreya tajribasi asosida issiqxona, ko‘rgazmali qishki bog‘ barpo etildi. Mahsulotlarni saqlash uchun 500 tonna sig‘imga ega muzlatkichli sovitish omborxonalari foydalanishga topshirildi. Quvasoy shahrida tomchilab sug‘orishga asoslangan 15 gektar intensiv bog‘ barpo etildi.

Bu yerda shaxsiy tomorqa yer egalariga dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik, quyonchilik, asalarichilik, urug‘chilik, ko‘chatchilik hamda gulchilikni rivojlantirish bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kurslari orqali malaka oshirish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Hududdagi 60 gektar maydonda innovatsion issiqxona barpo etilib, poliz, sabzavot va ko‘katlar yetishtirilyapti. Lola Murotova nomidagi qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan texnikum yoshlari dual ta’lim asosida mashg‘ulotlar o‘tkazadi.

Sirasini aytganda, qishloq xo‘jaligi tarmoqlari jadal rivojlanib, aholi bandligi va daromadini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash kabi muhim hayotiy masalalarda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Bu ajdodlardan meros dehqonchilik madaniyatini yangi O‘zbekiston ruhiga mos ravishda ilm-fanning so‘nggi yutuqlari, xalqaro ilg‘or tajribalar asosida yanada rivojlantirish imkonini bermoqda.

**Rasuljon KAMOLOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

---

Munosabat

# QULAY INVESTITSIYAVIY MUHIT BIZNI JAHONGA TANITYAPTI

**Farmatsevtika bilan shug‘ullanuvchi korxonamiz 2002-yilda ish boshlagan, ammo 2017-yilga qadar ko‘p qiyinchiliklarni yengib o‘tdik. Dorixonalarni import dori vositalari bilan ta’minlar edik. O‘sha paytdagi iqtisodiy muammolar, ayniqsa, konvertatsiya masalasini eslay turib, bugungi kunlarga yetganimizga shukr aytaman.**



**Murod NOSIROV,**
**“Group of Navbahor” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, “Do‘stlik” ordeni sohibi**

Chunki u paytlar valyuta ololgan odamgina mol olib kelardi. Investorlar esa biz bilan ishlashni istamasdi. Negaki men o‘z valyutamni olib kirsam, qanday olib chiqib ketaman degan savol ko‘ndalang turardi ularning oldida. Shunday paytda ham amallab ishladik.

2017-yildan barcha sohalar qatori tadbirkorlik borasida ham davlat siyosati o‘zgarib, tarixiy qonun hujjatlari qabul qilina boshlandi. Biznesni rivojlantirishga yo‘l ochildi, iqtisodiy muhit yaxshilandi. Shunda tushunib yetdikki, endi raqobat ham o‘sadi. Ulgurji sotish bilangina cheklanish kechagi kunning ishi bo‘lib qoladi. Buyog‘iga yangicha ishlab chiqarishni boshlashimiz kerak degan maqsad bilan eksklyuziv mahsulotlar ishlab chiqarish va chakana savdo yo‘nalishidan bordik. “Navbahor eksklyuziv”, “Navbahor marketing” korxonalarini tashkil etib, chet eldan avvallari O‘zbekisonga kirmagan dori vositalarini olib keldik. Marketing bilan shug‘ullanganimiz qo‘l keldi, tajribamiz ortdi. 2020-yilda “Navbahor sanoat” korxonamizda tabletka va kapsula shaklidagi dori vositalarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydik. Biz bilgan ko‘plab korxonalar Xitoyga borardi. Chunki u yerda katta bozor, arzon dorilar bor. O‘zimiz ham Xitoy texnologiyalari va turli mahsulotlarini olib kelganmiz o‘sha paytlar. Lekin shu bilan birga, Yevropa tajribasini ham o‘rgana boshladik. Qiziq jihati shundaki, Yevropada katta-katta farmatsevtik korxonalar zavod qurmas, kompaniyalar yangi dorilarni o‘ylab topish, yoki boshqa korxonalarda ishlab chiqarish orqali o‘z brendini tatbiq qilar ekan. O‘ziga qulay joyda, o‘zi istagan sifatni ta’minlab beradigan shartnoma asosida ishlab chiqararkan.

Bizda zavodlar bor, yaxshi mahsulotlar ishlab chiqaradi, lekin sotishda, eksportda qiyinchiliklarga duch kelamiz. Aslida, biz yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, eksportga yo‘naltirishni 2017-yildan boshladik. Axir bu juda qisqa davr. O‘zbek brendlari endi rivojlanish pallasida. Buning uchun ham juda katta mablag‘, kuchli mutaxassislar kerak. Shiddat bilan boshqa bozorlarga kirib, tadqiqotlar qilishga mablag‘ bo‘lmagani uchun ham biz ko‘p to‘siqlarga uchradik. Masalan, Qozog‘istonga borib, o‘zimizning mahsulotimizni sotadigan bo‘lsak, avvalo, ro‘yxatdan o‘tishning o‘zi murakkab. Ularning talabi, qonun-qoidasini o‘rganish juda qiyin kechadi. Chig‘iriqlardan o‘tgandan keyin ham farmatsevtika kompaniyalariga mahsulotlarimizni sota olmay qolishimiz mumkin. Mahsulot sifatini past baholashi, pulni uzoqlashtirib yuborish holatlariga duch kelganmiz. Agar shartnoma asosida mahsulotini ishlab chiqarib bersak va ularning o‘zlari sotsa, biz ham ular bilan birga bozorlarga kira olamiz. Shu bois, investor topib, qo‘shma korxona tashkil etdik. Texnologik jihatdan o‘ziga xos, Markaziy Osiyoda yagona zavod bo‘ldi. Birinchi bosqichda ampula shaklidagi dori vositalarini ishlab chiqara boshladik.

Investorlarimiz yurtimizdagi investitsiyaviy muhitdan, biznes sharoitidan mamnun. Korxona loyihasini, qurilishini, montaj ishlarini o‘zlari amalga oshirdi. Qurilish jarayonlarida bizdan hech narsani yashirmay, o‘z tajribasini o‘rgatdi.

Mutaxassislarimizni Yevropaga olib borib o‘qitdi. Bu ularning kasbiy rivojlanishiga xizmat qildi. Eng muhimi, endi tajribali, zamon talablariga javob beradigan mutaxassislar bilan boshqa korxonalarimizni bemalol o‘zimiz qura olamiz. Hamkorlarimiz esa yana ikkinchi zavodni ham qurib bitirish arafasida. Quvonarlisi, uchinchi korxonani qurish bo‘yicha ham biz bilan shartnoma imzolayapti.

Balandparvozlik emas, bularning barchasi mamlakatimizda tadbirkorlarga qaratilayotgan alohida e’tibor samarasi. Agar bugungiday investitsiya muhiti bo‘lmaganida O‘zbekistonga hanuz investorlar kelmasdi.

Prezidentimizning tadbirkorlar bilan uchrashuvida ma’lum bo‘ldiki, o‘tgan sakkiz yilda yurtimizga 230 milliard dollar investitsiya kirib kelgan. Shundan 120 milliard dollardan ortig‘i xorijiy sarmoya. Endigi imkoniyatlar bu ko‘rsatkichlarning yanada o‘sib borishiga xizmat qiladi. Zero, davlatimiz rahbari biznes vakillarida qo‘shimcha joy olishga ehtiyoj borligini inobatga olib, kelgusi yildan davlat aktivlari besh yilga ijaraga berilishini aytdi. Tibbiyot klasterlarini barpo etgan tadbirkorlarga 7 yil muddatga, 3 yil imtiyozli davr bilan 17 foizli arzon kreditlar berilgan holatlar avval bo‘lganmidi? Loyihaga soddalashgan tartibda mablag‘ jalb qilish bo‘yicha investitsiya platformasi ishga tushirilishi ham ayni muddao bo‘ldi. Bu bilan biz kabi tadbirkorlarning ushbu yangi tizim orqali yiliga qo‘shimcha 1 milliard dollar mablag‘ jalb qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi ham iqtisodiyotimiz rivojiga sezilarli hissa qo‘shadi. Bularni tushunib yetish, muammolarning yechimi nimada ekanini anglash uchun davlatimiz rahbari har bitta sohaning ich-ichiga kirib boryapti. Qayerda to‘siq bo‘lsa, o‘shani olib tashlashga o‘zlari bosh bo‘layotganidan juda xursandmiz.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugun berilayotgan imtiyozlar, yaratilayotgan sharoitlarning bari ertaga, albatta, o‘z natijasini ko‘rsatadi. Tadbirkorlikda to‘g‘riso‘zlik, halollik, ishga muhabbat bilan birga, qo‘llovga munosib javob ham birlamchi omil hisoblanadi. Shu ma’noda, faoliyatimizni bundan-da rivojlantirib, xalqimizga naf keltiradigan yangi loyihalar ustida izlanyapmiz. Bugungi kunda 800 ga yaqin kishini ish bilan ta’minladik. Hozirda xorijlik investorlar kompaniyalarimiz mahsulotlarini import qilish emas, biz bilan ishlab chiqarishga qiziqish bildiryapti. Agar ular logistika xizmatlariga sarflanadigan xarajatni dorilar narxidan olib tashlasa, aholimiz dori vositalarini arzonroq xarid qiladi. Mana shunday ezgu niyatlarimiz, g‘oyalarimiz davlatimiz tomonidan qo‘llab-quvvatlanyapti. Bu albatta, xalqimizning, tadbirkorlarning yutug‘i.

“Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlanganimni eshitiboq, ota-onamga bu sizlarning tarbiyangiz mevasi, dedim. Ko‘zlariga yosh keldi. Elning, davlat rahbarining nazariga tushish oson emasligi, buyog‘iga ham shu yo‘lda bardavom bo‘lishimni tilab duo qildilar. Yurtimizga to‘kinlik, farovonlik, tadbirkorlarimizga esa kuch-quvvat, salomatlik tilashdi. Zero, chindan ham xalqimiz, oilalar hayotini farovon qiladigan kuch, bu — tadbirkorlar.

Nuqtayi nazar



**Malakali va mahoratli mutaxassis har joyda kerak. Texnika jadallik bilan taraqqiy etib borayotgan hozirgi davrda esa bu tabiiy jarayon. Zavod va fabrikalar soni ko‘payarkan, kadrlarga ehtiyoj ham o‘sib boraveradi. Shunday bo‘lsa-da, istiqbolini ko‘zlagan korxona rahbari mehnat bozoridan bugungi kun talablariga javob beradigan mutaxassislarni saralab oladi. Ularning qobiliyatlarini yuzaga chiqarishlariga imkon beradi. O‘rni kelganda, bu borada oliy ta’lim muassasalari bilan keng hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi. Demak, oliygohlar ham ana shu hamjihatlikka yelkama-yelka tura oladigan bo‘lishi lozim. Prezidentimiz raisligida oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari bandligini ta’minlash masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda bu yo‘nalishdagi asosiy vazifalar belgilab berildi.**

# DIPLOMGACHA VA UNDAN KEYIN...

## YOXUD TALABA TAQDIRIGA TAALLUQLI YONDASHUV



**Sherzod NE’MATOV,**
**fizika-matematika fanlari doktori, professor**

### Ishonch — mas’uliyat demak

Yig‘ilishda bitiruvchilar bandligini ta’minlash yechimlari ko‘rsatib berildi. Bu faqat oliygohlar muammosi emas. Shuning uchun Prezidentimiz tomonidan oliy ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyani yanada mustahkamlash, hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan muhim takliflar bildirildi. Masalan, endi qiymati 1 million dollardan, ishchilar soni 50 nafardan ko‘p bo‘lgan loyihalarning texnik-iqtisodiy asosida sohalar va yo‘nalishlar kesimida mutaxassislarga ehtiyoj ko‘rsatiladi. Bu orqali mas’ul vazir va tarmoq rahbari oliy o‘quv yurtiga buyurtma joylashtirib, kadrlarni maqsadli tayyorlashni yo‘lga qo‘yadi. Yana bir holat. Endi bitiruvchini ishga olganlik uchun tadbirkorlik reytingida qo‘shimcha ball beriladi. Oliy ta’lim muassasasi ularni bo‘sh o‘rin bor korxonaga yo‘naltiradi va bu o‘z samarasini berishi shubhasiz.

Bu mexanizm, birinchi navbatda, oliy ta’lim muassasalari jamoasi mas’uliyatini oshiradi. Son emas, balki sifatga talab kuchayadi. Sababi, Prezidentimiz tomonidan rektorlar vakolati va mas’uliyatini oshirishda Yangi O‘zbekiston universitetining baholash tizimini boshqa muassasalarda ham yo‘lga qo‘yish taklifi bildirildi. Xo‘sh, bu qanday tizim? Bunda rektorlarning ishiga 4 mezon asosida baho beriladi. Davlatimiz rahbari ushbu tizimni Qarshi davlat texnika universiteti misolida tushuntirib berdi. Demak, oliy o‘quv yurtiga bitiruvchilar bandligiga qarab 40 ball, ilmiy tadqiqotlar uchun tarmoq buyurtmasi va mahsulotini sotishiga qarab 30 ball, ilmiy salohiyati va tan olingan xalqaro jurnallardagi maqolalari uchun 20 ball, jalb qilingan mahalliy va xorijiy grant uchun 10 ballgacha beriladi. Ushbu ballarga qarab, yuqori natija ko‘rsatganlar davlat mablag‘lari hisobidan rag‘batlantiriladi, “ishlamagan”lar, ya’ni kam ball olganlar esa jarima to‘laydi.

Yangi tizim oliygohlar o‘rtasidagi sog‘lom raqobatni kuchaytiradi, mas’uliyatni oshirib, izlanuvchanlikka undaydi. Shu bois, endi barcha oliy ta’lim muassasalari tashkiliy va akademik mustaqil bo‘ladi. Bu nima degani? Endilikda rektorlar o‘rinbosarlarini o‘zi tayinlaydi, belgilangan miqdor doirasida professor-o‘qituvchilar va boshqaruv xodimlarini taqsimlaydi. “Super kontrakt” miqdorini tabaqalashgan holda belgilash vakolati ham beriladi. Demak, endi rahbariyat va o‘qituvchilar ham “chertib-chertib” ishga olinadi. Shundan kelib chiqib, Yangi O‘zbekiston universitetida “Rektorlar maktabi” dasturi orqali rektor va prorektorlikka nomzodlar maqsadli tayyorlanadi.

### Seleksiya — talabalikka yo‘l

Talabalarimiz to‘liq ishli bo‘lishiga erishmoqchi bo‘lsak, ko‘proq bilimli yoshlarni o‘qishga qabul qilishimiz lozim. Ya’ni seleksiyamiz yaxshi bo‘lishi kerak. Masalan, universitetimiz tarkibida 3 ta akademik litsey bor. Biz ularning o‘tgan yilgi ko‘rsatkichlarini tahlil qildik. Akademik litseylarimiz bitiruvchilarining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish ko‘rsatkichlari 96 foiz atrofida. Bu yaxshi. Lekin ularning universitetimiz talabasi bo‘lganlari 25 foiz, xolos.

Tahlillar bizni mushohada yuritishga, muammo yechimini izlashga undadi. Buning uchun, birinchi navbatda, har bir litseyda so‘rovnomalar orqali o‘quvchilarning qiziqishi, maqsadi, dunyoqarashi, saviyasi o‘rganib chiqiladi. Shunga qarab o‘zlari sevgan, qiziqqan soha obyektlariga ekskursiyalar, qisqa muddatli amaliyotlar tashkil etiladi. Viloyatimizdagi Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi, Uzbekistan GTL va shu kabi yirik sanoat korxonalari rahbarlari bu tashabbusimizni ma’qullashdi. Ushbu sayohatlar orqali o‘quvchilarda universitet va korxona o‘rtasidagi hamkorlik haqida tasavvur shakllanadi, bilim olishga intilish ortadi, oliygohimizda o‘qishga bo‘lgan ishtiyoq kuchayadi degan umiddamiz.

Targ‘ibot va tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish lozim. Buni faqat qabul jarayoni davridagina amalga oshirish bilan kifoyalanib bo‘lmaydi. Joriy yilda maktablarda ko‘plab uchrashuvlarni tashkil qildik, ma’lumotnomalar tarqatdik, universitetimizni keng targ‘ib qildik. Endi yangi, ta’sirchan mexanizmlar ustida bosh qotiryapmiz. Bundan buyon oliy ta’lim muassasalari mavqei ularning nomi bilan emas, balki talabalarining o‘qishni tugatganidan keyingi taqdiri, ishga joylashish borasidagi ko‘rsatkichlari bilan belgilanadi.

### Bugun — amaliyotchi, ertaga — xodim

Bitiruvchilar bandligini ta’minlashda talabalarni birinchi kursdayoq sohalar kesimida ishlab chiqarishga biriktirish amaliyotini qo‘llaymiz. Oliygohni tamomlagan talabaning diplomni olar-olmas ishi tayin bo‘lsa, u to‘rt yil davomida shunga qarab harakat qiladi. O‘z ustida ishlaydi. Amaliyotni ham o‘qish-o‘rganishga aylantiradi. Izlanishdan to‘xtamaydi.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan yangi tizim dual ta’limning yanada sifatli, oliygoh va korxona o‘rtasidagi integratsiyaning tobora mustahkam bo‘lishini taqozo etadi. Prezidentimizning 2022-yil 7-iyuldagi “Neft va gaz sohasida ta’lim-ishlab chiqarish klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bu boradagi muhim dasturulamal bo‘ldi. Bu qaror oliy ta’lim, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi



integratsiyaning yangi davrini boshlab berdi. Uning huquqiy asoslari ishlab chiqildi. Yosh olimlarning nufuzli korxonalardagi zamonaviy laboratoriyalarda ilmiy tadqiqot va tajriba-sinov ishlarini olib borishlari uchun keng imkoniyat yaratildi. Talabalarning amaliyoti sifatli tashkil etilib, korxonalar uchun malakali kadrlar zaxirasi shakllantirila boshlandi. Buning natijasida neft va gaz sohasidagi ta’lim-ishlab chiqarish klasterining tarkibiga kiruvchi korxonalarda, jumladan, Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi, Uzbekistan GTL, Sho‘rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasida har yili universitetning 700 nafardan ortiq talabalari amaliyot o‘tadi, 40 nafardan ortiq iqtidorli talabalar korxonalar stipendiyasini oldi, 100 dan ziyod bitiruvchilar ish bilan ta’minlandi.

Universitet va “Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi” MCHJ hamkorligida “Gaz-kimyo va energetika” ilg‘or muhandislik maktabi tashkil etilgan bo‘lib, “tarmoq — korxona — oliygoh” tamoyili yo‘lga qo‘yildi. Bu maktab sohada kadrlar tayyorlash borasidagi ishlarning muhim tizimiga aylandi.

Ma’lumki, ilg‘or muhandislik maktabining asosiy maqsadi sanoat hamkorlari ehtiyojlari va atrof-muhitni muhofaza qilish talablarini hisobga olgan holda, nafaqat yuqori texnologiyali va ko‘p tarmoqli texnologiyalarni o‘zlashtirishga qodir bo‘lgan, balki kreativ fikrlaydigan, ratsionalizatorlik takliflarini ishlab chiqadigan “muhandis-tadqiqotchi” malakasiga ega yangi avlod kadrlarini tayyorlashga qaratilgan.

Ana shu maqsaddan kelib chiqib, maktabning o‘quv-uslubiy ta’minoti jahondagi yetakchi 300 universitet, jumladan Malayziyaning Petronas texnologiyalar universiteti, Drezden texnika universiteti (Germaniya), Tomsk politexnika universiteti (Rossiya)ning chuqurlashtirilgan modulli o‘quv dasturlari, o‘quv rejalari, xorijda chop etilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida shakllantirildi.

Hozirda 1-bosqich magistrlaridan 23 nafari ilg‘or muhandislik maktabiga tanlov asosida olingan bo‘lib, neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi, elektr ta’minoti va kimyoviy texnologiya bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanadi.

Ta’limning ham universitetda, ham korxonada olib borilayotgani magistrlar uchun amaliyot imkoniyatlari va ta’lim sifati oshishiga hamda malakali mutaxassis bo‘lib yetishishiga imkon yaratmoqda. Qolaversa, ular ilmiy tadqiqot ishlarini bevosita zavodning o‘zidagi laboratoriyalarda olib boryapti. 2025-2026-yillarda 20 dan ortiq magistrlik va 3 ta doktorlik dissertatsiyalari himoya qilinadi, 2 ta innovatsion ishlanma ishlab chiqarishga joriy etilmoqda. Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi va universitet olimlari hammualliflligida 2 ta ilmiy ixtiroga talabnoma topshiriladi. 10 dan ortiq mavzularda ilmiy texnologik muammolarning muhandislik yechimlari ishlab chiqilmoqda.

Shu o‘rinda neft va gaz sohasida ta’lim klasteri joriy etilishi samarali natijalar berganini inobatga olib, boshqa ustuvor muhandislik yo‘nalishlarida, jumladan, energetika, geologiya, mashinasozlik kabi sohalarda ham ta’lim-ishlab chiqarish klasterlarini tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu orqali muhandis kadrlarni maqsadli tayyorlash ko‘lami yanada kengayadi.

Hamkorlikning ahamiyati nimada ko‘rinadi? Birinchi navbatda, universitet va korxonalar o‘rtasidagi hamkorlik amaliy natijalarga qaratildi, maqsad va rejalar yakdillashdi. Yirik korxonalardagi ayrim muammolar yechimi bahamjihat hal etila boshlandi. Masalan, ana shunday loyihalardan 5 tasi amalga oshirilishi bilan universitetimizning xo‘jalik shartnomalari bajarilmoqda. Korxonalarning 5 nafar mutaxassisi olimlarimiz bilan birgalikda shu loyihalar asosida tadqiqot ishlarini olib borib, ilmiy darajaga ega bo‘lyapti. Endi bunday mutaxassislar bizning talabalarimizga dars o‘tadi. Bu ta’lim sifatini yanada yaxshilashga, talabalarning ertaga o‘zlari mehnat qiladigan zavodlar haqidagi tasavvuri, bilim va tajribasi ortishiga xizmat qiladi.

### “G‘oyalar fabrikasi”

Universitetimizda muhandislik sohasida yosh olimlar va talabalarning biznesga yo‘naltirilgan innovatsion g‘oyalarini bozorga tayyor mahsulot sifatida yetkazish, tadqiqotchilar ishlanmalari, loyihalarining tajriba nusxalari hamda prototiplarini yaratish va sinovdan o‘tkazish maqsadida “Ustaxona-Fablab”, 3D-loyihalash va modellashtirish hamda kichik ishlab chiqarish sexlari tashkil etilayotir.

Viloyatdagi ilmiy-texnik loyihalarni boshqarish, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydigan korxonalar bilan o‘zaro samarali hamkorlik o‘rnatiladi va ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish amalga oshiriladi. Buning uchun universitetimizda yangi bino qurildi, hozir jihozlash choralari ko‘rilmoqda.

Yaqinda AQShning Massachusets universitetida tahsil olgan xorijiy ekspertlar ishtirokida “Fablab” bo‘yicha konsepsiya ishlab chiqilib, ish beruvchilar talablari asosida 4 ta yo‘nalish belgilab olindi. Bunda ham bosh g‘oya talabalarning intilishlarini yuzaga chiqarish va ularning bandligini ta’minlash.

Bundan tashqari, universitet qoshida energetika sohasi uchun sun’iy intellekt va raqamlashtirish, injiniring, ishlab chiqarish muammolari yechimiga qaratilgan ilmiy-innovatsion ishlanmalarni yaratish va tijoratlashtirish yo‘nalishida ilmiy-amaliy faoliyat olib boradigan “Yashil energetika va intellektual energetik tizimlar” ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish mo‘ljallangan.

### Kafolatli diplom — maqbul taklif

Oliygohlar mavqei haqida so‘z yuritganda, birinchi navbatda, ularning ilmiy salohiyati, ta’lim sifati, moddiy-texnik bazasiga e’tibor qaratamiz. Amalda ham shunday. Shuning uchun ham universitetimizning fan dasturlari va o‘quv rejalari dunyoning TOP-300 talik ro‘yxatidagi universitetlar o‘quv rejalariga moslanmoqda. Chet eldan mutaxassislar jalb qilyapmiz. Bugungi mutaxassis, avvalo, xorijiy tillarni yaxshi bilishi, o‘z sohasiga oid dasturlar bo‘yicha tajribaga ega bo‘lishi lozim. Eng asosiysi, bitiruvchining diplomi kafolatli bo‘lishi zarur.

Kuzatishlarimizdan shu narsa ayon bo‘ldiki, bugungi kunda xalqaro mehnat bozorida muhandis kadrlarga bo‘lgan talab oshib bormoqda. Xususan, 2024-yilda AQShda 600 ming, Germaniyada 150 ming, Buyuk Britaniyada 40 mingdan ziyod mutaxassisga ehtiyoj bo‘lgan.

Bizning muhandis talabalar xorijda oson ish topishi uchun, avvalo, ularga zamonga mos ta’lim berishimiz, shuningdek, asosiy ta’lim yo‘nalishlarini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazishimiz kerak bo‘ladi. Bugungi kunda universitetning 3 ta magistratura mutaxassisliklari va 2 ta bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha Germaniyaning ASIIN xalqaro akkreditatsiya tashkiloti bilan shartnoma imzolandi.

Biz bu yil 3 ta magistratura va 2 bakalavr ta’lim yo‘nalishlarini Germaniyaning ASIIN kompaniyasida xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha shartnoma imzoladik. Bu nima beradi? Ertaga talabaning diplomiga qo‘shib xalqaro akkreditatsiya sertifikatini ham beramiz. Demak, bitiruvchining qo‘lida universitet diplomi, muhandislikka oid xalqaro sertifikat, til bilish bo‘yicha yana bir sertifikati bo‘lsa, u ishsiz qolmaydi. Nafaqat O‘zbekistonda, balki chet elda ham o‘ziga munosib, serdaromad ishni oson topa oladi.

Kadrlar tayyorlashda o‘qituvchilarning ham amaliy ko‘nikmasi yuqori bo‘lishi kerak. Shunga ko‘ra universitetda, eng avvalo, Qashqadaryodagi yirik ishlab chiqarish korxonalarida o‘qituvchilar stajirovkasini tashkil etyapmiz. 2025-yilda 120 nafar o‘qituvchining xorijda malaka oshirishi rejalashtirilgan. Xitoy bilan hamkorlikni kengaytirib, ular bilan stajirovka dasturlarini kelishgan holda o‘qituvchilarni 10-15 nafardan guruh shaklida yuborish mo‘ljallangan.

### Kelajakka qo‘yilgan qadam

Talaba bizdan ketgani uning taqdiri zimmamizdan soqit bo‘ldi degani emas. To‘g‘ri, bitiruvchilarning bandligini ta’minlashga ko‘maklashish mahallalardagi yoshlar yetakchilarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Shuning uchun biz ular bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri hamkorlik o‘rnatib, birgalikda harakat qilmoqchimiz. Aytish mumkinki, talabani ishli qilish uchun bor imkoniyatimizni ishga solamiz.

Hozir yoshlar bandligini ta’minlash barcha mutasaddilarning asosiy vazifasiga aylangan. Qashqadaryo viloyati hokimligi tomonidan ishga joylashish qiyin bo‘lgan sohalar tanlab olinib, o‘rganilib, yoshlarga amaliy yordam berish choralari ko‘rilmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan “Kelajakka qadam” dasturi yoshlar bandligini ta’minlash, ularning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, oilasi iqtisodini yuksaltirish borasidagi maqsadlarini ro‘yobga chiqarishga qaratilganligi bilan ahamiyatli bo‘ldi. Birgina universitetimiz misolida aytadigan bo‘lsak, shu kunga qadar 78 nafar talabamizga 2 milliard 492 million so‘m miqdorida kredit berildi.

Talabalar bandligini ta’minlashning yana bir omili — ularning til bilish darajasini oshirish. Fan dasturlarini o‘zgartirish barobarida chet eldan keltirilayotgan yangi adabiyotlarni o‘rganish, tarjima qilish, amaliyotga joriy etish masalasi bor. Ana shunda gap yana til bilish darajasiga borib taqaladi. Til kurslarini tashkil etish va mutaxassislik fanlarini ingliz tilida olib borish lozim bo‘ladi. Biz masofaviy ta’limni yo‘lga qo‘yyapmiz. Xorijdan talaba jalb qilish rejalarimiz bor. Buning uchun chet tillarini biladigan o‘qituvchilar va o‘quvchilarga ehtiyoj yana ortadi.

# SALOHIYATNI YUZAGA CHIQARISHNING MUNOSIB FURSATI

“Dolzarb 90 kun”



**Bahodir BOBORAJABOV,**
**texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent**

**Bugungi davrda yosh avlodning har tomonlama yetuk, bilimli va faol shaxslar bo‘lib kamol topishi mamlakatimiz taraqqiyot yo‘lining muhim poydevori hisoblanadi. Ayniqsa, ta’lim muassasalaridagi yozgi ta’til davrini mazmunli va samarali tashkil etish, ularning bo‘sh vaqtini foydali mashg‘ulotlarga yo‘naltirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada “Dolzarb 90 kun” loyihasi yurtimizdagi oliygohlar faoliyatida ham samarali davrni boshlab berdi. Toshkent kimyo-texnologiya instituti ham ushbu loyihani mas’uliyat bilan, yuksak saviyada amalga oshirib, talabalar, o‘quvchilar va mahalla yoshlari uchun yozgi ta’tilni nafaqat dam olish, balki shaxsiy va kasbiy o‘sish davriga aylantirishga erishmoqda.**

Loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun Toshkent kimyo-texnologiya institutida maxsus shtab tashkil etilgan bo‘lib, uning faoliyati aniq rejalar asosida yo‘lga qo‘yilgan. Shtab a’zolarining vazifalari puxta belgilab olingani, ularning loyiha maqsadlaridan to‘liq xabardorligi tadbirlarning uzluksiz va muvofiqlashtirilgan holda olib borilishini ta’minlamoqda. Bu tizimli yondashuv loyihaning har bir jihati puxta rejalashtirilishi va doimiy nazorat ostida bo‘lishini kafolatlaydi.

Institutning barcha sport inshootlari, o‘quv-amaliy laboratoriyalari, to‘garaklar uchun ajratilgan xonalar yozgi ta’til davrida to‘liq ish rejimiga o‘tkazilib, ulardan talabalar, shuningdek, yon-atrofdagi mahallalar yoshlari bemalol foydalanishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bu, o‘z navbatida, ta’lim muassasasining nafaqat akademik, balki ijtimoiy mas’uliyatini ham to‘laqonli ado etayotganini ko‘rsatadi. Mas’ul xodimlar, to‘garak rahbarlari va sport trenerlarining aniq ro‘yxati shakllantirilgan va ular faoliyati mehnat qonunchiligiga muvofiq rag‘batlantirilmoqda, bu esa loyiha ishtirokchilarini yanada ruhlantirishi shubhasiz.

“Dolzarb 90 kun” doirasidagi tadbirlar orqali Shayxontohur tumanidagi 51 ta mahalla hamda 35 ta maktab qamrab olingan bo‘lib, belgilangan reja-grafik asosidagi hamkorlik hisobiga muntazam to‘garak va mashg‘ulotlar o‘tkazib kelinadi.

Loyiha doirasidagi chora-tadbirlar dasturida haftaning har bir kuni uchun aniq tematik yo‘nalishlar belgilangan. Bu reja-grafik loyihaning tizimli va uzluksiz amalga oshirilishini kafolatlaydi. Dushanba kuni ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, san’at ko‘rgazmalari va “Zakovat” intellektual o‘yinlariga bag‘ishlansa, seshanba kuni sport musobaqalari va kibersport o‘yinlari yoshlarning jismoniy va aqliy salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Chorshanba kuni kino va teatr san’ati, payshanba kuni tadbirkorlik va innovatsion g‘oyalarni rivojlantirishga qaratilgan treninglar, juma kuni xorijiy tillarni o‘rganish va zamonaviy dasturlash ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha mahorat darslari, shanba kuni esa 3D modellashtirish, amaliy kimyo va fizika laboratoriyalari, robototexnika va dron texnologiyalari to‘garaklari orqali yoshlarning texnologik bilimlari boyitilmoqda.

Shuningdek, “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” loyihasi doirasida tarixiy joylar va innovatsion texnoparklarga ekskursiyalar uyushtirilayotir. Institut hududida “Bunyodkor yoshlar” talabalar otryadlarining faoliyati yo‘lga qo‘yilib, yoshlarning mehnatsevarlik ko‘nikmalari shakllantirilmoqda. Bu tadbirlarning barchasi aniq reja asosida, yuksak saviyada tashkil etilib, yoshlarning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi, albatta.

Institutda “Talabalar media guruhi”ning tashkil etilishi va uning zarur vositalar bilan jihozlanishi



loyiha doirasidagi barcha tadbirlarning ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borilishiga imkon yaratgan. Bu esa loyihaning shaffofligini ta’minlab, uning ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazishda muhim o‘rin tutadi. “Yoshlar bandligi oyligi” doirasida bitiruvchi kurs talabalariga “Davlat xizmatiga ishga kirish tartibi” mavzusida seminarlar tashkil etildi. Shuningdek, “O‘zkimyosanoat” AJ hamkorligida Sanoat muhandisligi va menejmenti fakulteti bitiruvchilari uchun tashkil etilgan “Karyera kuni” ko‘plab yoshlarning o‘z ish o‘rinlarini topishiga katta yordam berdi.

Tadbirkorlikka keng jalb etish maqsadida muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlar ishtirokida motivatsiya beruvchi “Biznes marafon” treninglari o‘tkazilyapti. Zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirishga ham alohida e’tibor qaratilgan. Institutda “3D modellashtirish” to‘garagi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan va bu yoshlarning 3D Max, Blender, Lumion, Solid Works, Maya, AutoCAD kabi dasturlarda mustaqil loyihalar amalga oshirish ko‘nikmalari shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, “Amaliy fizika va kimyo laboratoriyalari” to‘garaklari ham talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotda yanada mustahkamlaydi. Bularning barchasi institutning yoshlar uchun nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratayotganini ko‘rsatadi.

Loyiha yakunida turli yo‘nalishlarda faol ishtirok etgan yoshlar munosib rag‘batlantirildi. Futbol, voleybol, shaxmat va stol tennisi bo‘yicha sport musobaqalarida faxrli o‘rinlarni egallagan ishtirokchilar, shuningdek, ilmiy-amaliy to‘garaklar, “Karaoke kechasi”, ijodiy uchrashuvlar va “Zakovat” intellektual o‘yinida faol qatnashgan hamda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan yoshlar diplom va qimmatbaho esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi. Bunday rag‘batlantirishlar yoshlar orasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va o‘z ustida doimiy ishlashga undashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. “Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasida institut talaba yoshlari o‘rtasida “Sport — salomatlik garovi!” shiori ostida futbol musobaqasi tashkil etildi. Velosport musobaqasi ham yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga qaratilgan muhim tadbirlardan biri bo‘ldi.

“Dolzarb 90 kun” yoshlarning bo‘sh vaqtini samarali o‘tkazishlari, ularni jamiyatning faol va tashabbuskor a’zolari etib tarbiyalashga qaratilgan muhim qadamdir. Bu kabi tadbirlar nafaqat yoshlar orasida ijobiy kayfiyat yaratadi, balki ularni jamiyatga foydali shaxslar sifatida shakllantirish, Vatanga sadoqatli bo‘lish, o‘z milliy qadriyatlariga hurmat bilan yondashishga undashda ham muhim rol o‘ynaydi. Toshkent kimyo-texnologiya instituti kelajakda ham yoshlar bilan ishlash, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va salohiyatini yuzaga chiqarish bo‘yicha izchil ishlashda davom etadi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 34 yilligiga





# MUSTAQILLIK QADDINI KO‘TARGAN AVLOD

**Mixli SAFAROV,**
**O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist**

**Yoshlar — har bir millat va jamiyatning umidi, ishonchi, kelajagi. Ularning ma’naviy-axloqiy tabiati, ta’lim-tarbiyasi, maqsad-intilishi, mehnati, kurashi millat va jamiyatning taraqqiyot darajasini belgilaydi. Shunday jiddiy sabablarga ko‘ra, yoshlar masalasi har bir davlatning siyosati va amaliyotida yetakchi o‘rin tutadi.**



Mana, 34 yildirki, xalqimiz milliy mustaqillik sharoitida yashab, rivojlanib kelyapti. Bu davrning tarixiy ko‘rsatkichlaridan biri shuki, xalqimiz bag‘rida yangi avlod tug‘ilib voyaga yetdi. Ushbu avlod hozirgi kunda mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy hayotida katta kuchga aylandi. Yangi avlod tarbiyasi va taraqqiyotiga doimo katta e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatib kelinmoqda.

Faqat so‘nggi bir necha yil ichida yoshlar to‘g‘risida 3 ta yangi qonun qabul qilindi. Prezidentimiz tomonidan yoshlar to‘g‘risida o‘nlab farmon, farmoyish va qarorlar imzolandi. Ularda yoshlarning ta’lim-tarbiyasi, turmush hamda mehnat sharoitlarini zamon talablari darajasida yaxshilashga qaratilgan ko‘pgina muhim va istiqbolli vazifalar belgilangan. “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti va “Kelajak bunyodkori” medali ta’sis etildi. Ushbu mukofotlar hozirgi kunda ko‘plab eng sara yoshlarimiz ko‘ksini bezab turibdi. O‘zbekistonda yoshlarga doir davlat siyosatini rivojlantirishning yangi konsepsiyasi e’lon qilindi va uni amalga oshirishga qaratilgan “yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi. Ana shu strategik hujjat asosida yoshlar bilan ishlovchi agentlik faoliyat boshladi. Bosh vazir raisligida Yoshlar masalalari bo‘yicha idoralararo kengash vujudga keldi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzurida Yoshlar masalasi bo‘yicha komissiya tashkil etildi. 2020-yilda Yoshlar parlamenti shakllandi. E’tiborlisi, bundan keyin mustaqillik yillarida joriy etilgan bayramlarimiz qatorida har yili Yoshlar kuni nishonlanadi. Shuningdek, yoshlarni madaniyatga, san’atga, jismoniy tarbiyaga va sportga keng miqyosda jalb etish, axborot texnologiyasi maydonidagi savodxonligini oshirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni faollashtirish, yigit-qizlarni ish o‘rinlari bilan ta’minlashni izchil yo‘lga qo‘yishni o‘z ichiga olgan 5 ta muhim tashabbus yo‘lga qo‘yildi. “Yoshlar daftari” joriy etildi, bu daftarda ishsiz yoshlar ro‘yxatga olinib, ularning turmush sharoiti va biznes bilan shug‘ullanish imkoniyatlari o‘rganilib, tegishli va zarur chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Umuman olganda, yosh avlodni rivojlantirish bilan bog‘liq vazifalar va chora-tadbirlar ijrosi uchun davlat xazinasidan har yili necha yuz milliardlab mablag‘ ajratilmoqda. Xullas, ishlar ko‘lami keng.

Mustaqillik — hayotimizda muhim voqea. U — bizning baxtimiz. O‘tgan asr boshlarida bir guruh jadid-ma’rifatparvar otalarimiz maydonga chiqib, millatimizni yuksak zamonaviy ma’rifatli xalqlar qatoriga ko‘tarish yo‘lida mislsiz fidoyilik ko‘rsatdilar. Jumladan, ular xalqimiz orasidan bir guruh zehn-idrokli yoshlarni saralab olib, Germaniyaga o‘qishga safarbar etdilar. Yoshlar o‘qib, agronomlik, muhandislik, iqtisodchilik, shifokorlik, pedagoglik mutaxassisliklarini a’lo darajada egallab, O‘zbekistonimizga qaytib keldi. Ammo O‘zbekiston qizil imperiyaning bir mustamlakasi edi. Mustamlakachi xo‘jayinlar esa xorijda ta’lim olib qaytgan ilg‘or o‘zbek yoshlarini nafrat va g‘azab bilan kutib oldi. Ularni “chet el agentlari”, “xorijdan sho‘ro davlatini ichdan yemirish bo‘yicha maxfiy topshiriqlar olib qaytgan ayg‘oqchi” degan ayblar bilan qarshi olib, qamoqqa hukm qildi va so‘ngra birin-ketin yo‘qotib yubordi. Mana shu achinarli voqeaning o‘zi mustabidlik asoratidan chiqib, mustaqillik sharoitida yashash naqadar ulkan baxt ekanining bir dalolatidir.

Mustaqillikka erishish yangi hayotning boshlanishidir. O‘tgan yillar mobaynida xalqimiz mustaqillik sharoitida yashash madaniyati va malakasini egallash maktabini ham boshdan kechirdi. Ayniqsa, yoshlarimiz mustaqillikda yashash va rivojlanishning yorqin namunalarini ko‘rsatayotir. “Tomchida olam aks etadi” deganlaridek, quyida buning kichik dalilini keltirib o‘tmoqchiman. Hayotbek ismli nevaram bor. Hozirgi kunda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ta’lim olyapti. Ayni paytda har oqshomda qaysidir bir manzilga qatnab, axborot texnologiyalari sohasida dasturiy ta’minotni yaratish mutaxassisligini egallash maqsadida qo‘shimcha ta’limga boryapti. Bir kuni unga: “Kecha-yu kunduz o‘qib toliqib qolmayabsanmi, bolam?”, dedim. Nevaram esa: “Shunday qilmasam bo‘lmaydi, buva. Qo‘shimcha kasb-hunar egallasam, ish topish imkoniyatim kengayadi”, deya javob qildi. Nima ham derdim? “Quvvat bersin”, deb nevaramning boshini silab qo‘ydim. Bugungi yoshlar boshqacha. Ular “Peshonada borini ko‘ramizda”, degan fikrda emas. Boqimandalik kayfiyatidan xoli. Ongli, aql-idrokli izlanishlari bilan o‘z peshonasini o‘zlari yaraqlatishga qat’iy ahd qilgan avlod ular.

> **O‘zbekiston mustaqillik davrida erishayotgan yuksalishlarning o‘zi yoshlarimiz uchun alohida ulug‘ tarbiya maktabidir. Sobiq sho‘ro sharoitida O‘zbekiston agrar xomashyo hududi edi. Biz dalada ter to‘kib, mustabid davlat uchun arzon-garov paxta xomashyosi yetishtirib berar edik. Markazdagi fabrikalar esa paxtamizni qayta ishlab, gazlamalar chiqarar va ularni o‘zimizga olib kelib, qimmat narxlarda pullardi. O‘zbekistonning o‘zida to‘qimachilik fabrikalarini qurishga izn bermasdi.**



## Yoshlarning ayricha fazilati

Fidoyilik, vatanparvarlik hozirgi o‘zbek yoshlari ma’naviyatining ayricha fazilatidir. Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda ajoyib xushxabarni o‘qib qoldim: Yaponiyaning Kyushu shahridagi Texnologiya institutida ta’lim olayotgan bir guruh yosh muhandislarimiz O‘zbekiston kelajakda kosmosda foydalanishi mumkin bo‘lgan ilmiy-texnologik funksiyali Yer yo‘ldoshini yaratish ustida qizg‘in ishlayapti ekan. Yaponiyaning shu masalalar bilan shug‘ullanishga ixtisoslashtirilgan bir kompaniyasi yoshlarimizga ko‘maklashishni o‘z zimmasiga olibdi. Shak-shubhasiz, bunday xayrli urinishlar samarasini beradi. Nasib etsa, shu yosh mutaxassislarimiz sa’y-amallari tufayli O‘zbekiston vaqti kelib koinotda o‘z sun’iy yo‘ldoshiga ega bo‘ladi. Bunday yoshlarimiz borligidan quvonmay, faxrlanmay bo‘ladimi?!

Keyingi yillarda “Open budjet” degan yangi ibora hayotimizga kirib keldi. Ushbu tashabbus to‘g‘risida keng jamoatchilik o‘rtasida har xil fikrlar aytilyapti. Shaxsan men ushbu tadbirda hech bir yomonlikni ko‘rmadim. Aksincha, uning xayrli hayotiy tadbirlardan ekaniga guvohman. Nega bunday deyapman? Aslida, Qashqadaryo viloyatining G‘urjob qishlog‘ida tug‘ilganman. “Kichik vatan”ga ora-sira borib turaman. Afsuski, qishlog‘imizning bir zamonlar asfaltlangan, biroq oradan yillar o‘tib, uniqib, qum-shag‘allari o‘ynab, bag‘ri o‘ydim-chuqur bo‘lib yotgan yo‘llari meni ranjitar edi. Egasiz, qarovsiz bu yo‘llar qishloq yoshlarini befarq qoldirmadi. Hozirgi kunda qishloqning o‘zida yashayotgan va olis-olislarda mehnat qilayotgan yoshlari bir yoqadan bosh chiqarib, o‘tgan ikki yil ichida “Open budjet”da faol ishtirok etib, birinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi. Tez orada Yakkabog‘ tumani yo‘lsozlari o‘z hisobiga kirim qilingan shu mablag‘ evaziga qishlog‘imiz yo‘llarini boshdan oyoq asfaltlab berdi. Agar yoshlar oyoqqa turmaganida, bilmadim, bu yo‘llar yana qancha muddat shu g‘arib holida yotardi? Endi G‘urjobning asfaltlangan chiroyli yo‘llarida havas bilan yursang arziydi. Bunday tashabbuskorlik shashtini yoshlar qalbida mustaqilligimiz, erkin rivojlanish davri uyg‘otdi.

## Millatni ruhlantiruvchi omil

Millatni millat qilib turadigan ruhiy omillardan biri mafkuradir. Mafkura ko‘ngilda ko‘tarilgan bayroq, oldinga undovchi da’vatkor g‘oya, ruhiyatni qamrab olgan e’tiqoddir. Mustaqillik yoshlarimizda ana shunday kuchli his-tuyg‘ularni uyg‘otmoqda. Bugun “Qani, endi bor kuch-g‘ayratimni, mahorat va malakamni safarbar etib, O‘zbekiston bayrog‘ini dunyo ko‘z o‘ngida balandlarda hilpirashiga, madhiyamizning baralla yangrashiga erishsam”, degan maqsad-intilish millionlab yoshlarimiz qalbidagi ezgu orzudir. Ushbu orzu-maqsad borib turgan porloq mafkuradir. Shtanganing zil-zambilday toshlari bilan raqobatda, ring ko‘tarmalarida, kurash gilamlarida, futbol stadionlarida, shaxmat taxtalari yonida yoshlarimizga mana shu maqsad-intilish, mafkura alohida kuch ato etyapti. Shunday jasoratli intilish Diyora Keldiyorovaday oddiy o‘zbek qizini dzyudoda jahonning eng yuqori shohsupalariga ko‘tardi. Shu maqsad-intilish Bahodir Jalolovdek yoshlarimizni jahon ringlarining haqiqiy bahodiriga aylantirdi. Uni dunyoda bugun “bahaybat o‘zbek” deb tanishadi. Bu — olamshumul e’tirof! Mustaqil O‘zbekiston salohiyatining e’tirofi!

Umuman, jahon ringlarida bir-biridan mushti o‘ta ta’sirli o‘zbek bokschilari paydo bo‘lyaptiki, boshqalarning ular qarshisida ringda turishga botinishi aslo oson bo‘lmayapti. Shaxmat dunyosida esa Nodirbek Abdusattorov, Javohir Sindorov kabi zabardast xalqaro grossmeysterlarimiz yulduzi borgan sayin porlamoqda. Ular jahonning eng kuchli o‘nta alp shaxmatchisi qatorida turadi. Grossmeysterlarimiz safi tobora kengayib boryapti. Qizlarimiz orasidan ham jahonning eng kuchli shaxmatchi xotin-qizlari bilan bemalol bellasha oladigan g‘oyatda iste’dodli ustalar yetishib chiqmoqda. Yurtimizning keksa bir fuqarosi sifatida yigit-qizlarimizning shaxmat taxtalarida tengsiz ustalik bilan dona surishlari meni behad hayratlantiradi va zavqlantiradi. Taekvondo janglarida jahon shohsupasidagi eng yuqori o‘rinni anchadan beri dongdor raqiblariga bermay kelayotgan olg‘ir yigitimiz Ulug‘bek Rashidovni ham faxrlanib tilga olishimiz kerak. Shtangada esa Ruslan Nuriddinov va Akbar Jo‘rayevning har gal tosh ko‘tarishga chiqishi jahonda qizg‘in olqishlarga sabab bo‘lyapti. Futbolchilarimizni aytmaysizmi?! O‘n yetti yoshli o‘spirin koptokchilarimiz maydonda ikki nafarga kamaysa-da, saflari to‘la-to‘kis bo‘lib harakatlangan arab tengqurlarining adabini chinakamiga berishdi. Ular hatto o‘z maydonida o‘ynagani ham joniga oro kirmadi. Bu endi jahon futboli tarixiga oltin harflarda bitiladigan kamyob voqeadir. Balog‘at yoshidagi futbolchilarimiz esa bu yil jasorat ko‘rsatib, 2026-yilda Amerika qit’asida bo‘lib o‘tadigan jahon chempionatiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi. Bundan xalqimiz behad quvondi. Bugungi kunda o‘zbek futbolchilariga Osiyo va Yevropa jamoalaridan takliflar ko‘paymoqda. Shuning o‘zi yana bir ajoyib yutug‘imizdir.

Tabiiyki, rivojlanish yo‘lida tug‘ilayotgan masalalarga oqilona yondashish va ularga yechimlar topish orqali ulug‘ maqsadlarga erishiladi. Ha, oqilona, hayotiy, haqqoniy yechimlar! Unutmaylikki, hozirgi yoshlar bozor iqtisodiyoti davri farzandlaridir. Pirovardida qat’iy hisob-kitob bilan yashash, atrof-olamdagi hayotga pragmatik nuqtayi nazardan yondashish tamoyillari yoshlarimiz ruhiyatida tobora kuchaymoqda.

Yana bir masala. Yurtimizda muhtasham maktablar yil sayin ko‘paymoqda. Ammo ularning bag‘ridagi ta’lim-tarbiya malakasini oshirish bo‘yicha hali yana ko‘p ishlar qilinishi lozim. Yaqinda maktab pedagoglari o‘rtasida attestatsiya o‘tkazildi. Natija esa, afsuski, ko‘ngildagidek emas. Bu jiddiy o‘ylab ko‘riladigan masala. Bolalarimiz yuksak ma’rifatli va ilg‘or zamonaviy malakali ustozlar qo‘lida ta’lim-tarbiya ko‘rishga munosibdir.

So‘zimning nihoyasida yana bir taklifni bildirib o‘tmoqchiman. Mamlakatimizda bolalarda kitobxonlikni rag‘batlantirish masalasida ko‘riklar o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi. Yaxshi tadbir! Ammo bu ko‘riklarda faqat badiiy kitobxonlikka ahamiyat berilyapti. Yoshlarda ilmiy kitobxonlikni rivojlantirish ham taraqqiyot talabidir. Ilm-fan, texnika va texnologiyaga qiziqishi kuchli xalqlar nihoyatda rivojlanayotganini o‘z ko‘zlarimiz bilan ko‘rib turibmiz. Mamlakat miqyosida yosh matematiklar, fiziklar, kimyogarlar, iqtisodchilar, shifokorlar, tadbirkorlar, fermerlar ko‘riklarini uyushtirish foydali va samarali ta’lim-tarbiya tadbirlaridan bo‘lishi shubhasiz.

Mustaqilligimizni qadrlaylik. Mustaqillik bor ekan, biz bormiz, biz qudratlimiz va yuksalishda davom etamiz. Mustaqillik bor ekan — biz yorqin kelajakli xalqmiz. Daxlsiz, tinch, osoyishta, bir maromdagi rivojlanishimizga aslo ko‘z tegmasin. Yoshlarimizga esa men hazrati Alisher Navoiy bobomizning hikmatli so‘zlarini vosita qilib dilimda borini bunday izhor etaman: ey aziz o‘g‘lim, qizim, “Umidim shulki sendan, umidinga yetgil!”.



# UCH SO‘Z ZAMIRIDAGI qudrat

**Bahodirjon SHERMUHAMMADOV,**
**pedagogika fanlari doktori, professor**

**Mustaqillik eng ulug‘ ne’mat. Shukrki, biz ana shu ne’matdan bahramandmiz. Barchamiz uchun aziz bo‘lgan ushbu ayyomni har yili katta tantana va ko‘tarinki kayfiyat bilan, o‘ziga xos yutuqlar, muvaffaqiyatlar bilan qarshi olamiz. Ayni paytda barchamiz Prezidentimizning 2025-yil 11-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, joriy yilgi bayramga munosib tayyorgarlik ko‘ryapmiz.**

Aytish kerakki, bu yilgi qaror avvalgilaridan bir necha jihatlari bilan ajralib turadi. Jumladan, har bir sohada erishilayotgan yutuqlar alohida e’tirof etilib, mustaqillik bayramiga bag‘ishlangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda bir necha yo‘nalishlarga e’tibor qaratilishi qayd etilgan. O‘zim ta’lim sohasi vakili bo‘lganim bois, avvalo, shu sohaga doir raqamlar e’tiborimni tortdi. Qarorda keltirilganidek, ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar, maktabgacha ta’lim tizimida qamrov 2017-yilda 27 foizdan hozirgi paytda **77 foizga,** oliy ta’limda esa **9 foizdan 42 foizga** yetgani, ijod maktablari, ixtisoslashgan maktablar va Prezident maktablari kabi yangi modeldagi maktablar tizimi paydo bo‘lgani diqqatga sazovor.

Shuningdek, **“Yoshlar — Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari”** degan shior ostida navqiron avlod vakillarining zamonaviy bilim va kasb-hunarlar, ona tili bilan birga xorijiy tillarni, axborot texnologiyalarini egallashi, tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi, iste’dod va qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun har tomonlama qulay shart-sharoit yaratib berilayotgani, bunga javoban o‘g‘il-qizlarimizning turli sohalardagi yutuqlari, natijalari e’tirof etishga loyiqdir.



Joriy yilgi bayram **“Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!”** degan umumiy ezgu shior ostida o‘tkaziladi. Bu nafaqat mustaqilligimizning g‘oyaviy ramzi, balki butun xalqimizning qalbidan joy olgan orzu-umidlar aksidir. Chunki mazkur shior mohiyatiga nazar tashlasak, unda inson uchun muqaddas uch jumla — **vatan, millat va xalq** tushunchasi jamlangan. Har bir so‘z zamirida mas’uliyat va sadoqat mujassam. Vatan — bizning ona tuprog‘imiz, tariximiz, madaniyatimiz, muqaddas maskanimiz. Millat — bizning o‘zligimiz, tildagi, din-diyonatdagi, urf-odat va qadriyatlardagi yagona mushtarakligimiz. Xalq — bizni bor qilgan qudratli kuch, millionlab yuraklar, ota-onalarimiz, farzandlarimiz.

Bugun — tarixdan ibrat olish vaqti. Haqiqatni esdan chiqarmaslik va kelajak avlodlarni xabardor etish, ogoh yashash fursati. Zero, shukronalik va hushyorlik bilan, o‘tmishdan dars olib, farovon ertani bunyod etish o‘z qo‘limizda. Hozirgi har daqiqasi oltinga teng davrda kimlarning avlodi ekanini yaxshi bilgan, ularga munosib bo‘lish uchun eng to‘g‘ri yo‘lda qat’iyat bilan olg‘a borayotgan, uzluksiz rivojlanayotgan, buyuk davlat ostonasida barcha xalqlarga do‘stlik qo‘lini uzatayotgan yangi O‘zbekiston chinakam baxtiyorlar, baxtga yorlar diyoriga aylandi.

Qarorda keltirilganidek, mustaqillik bu — davlat suvereniteti, xalq erki va adolatli jamiyat qurish yo‘lida asosiy tayanch. Bugun esa bu qadriyatlar

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi asosida yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Endilikda **“Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!”** degan shior har bir sohada — siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, fan va sportda hayotiy tamoyilga aylanmoqda. O‘zbekiston bugun sobitqadamlik bilan inson qadri ulug‘lanayotgan, har bir fuqaroning orzulari ro‘yobga chiqayotgan davlatga aylanmoqda. O‘zgarishlar ta’limdan tortib, raqamli texnologiyagacha, sog‘liqni saqlashdan madaniyat va sportgacha bo‘lgan sohalarda chuqur sezilmoqda. Bu esa mamlakatda barcha soha “xalq uchun” xizmat qilishining amaliy ifodasidir.

Yangi maktablar, Prezident ta’lim muassasalari, chet tillarni o‘rganishga yaratilgan sharoitlar, yoshlarning AT, biznes, san’at va sportdagi ulkan yutuqlari — bularning bari millatning ertangi kunini barpo etayotgan yoshlarga qanot bermoqda. Xususan, Farg‘ona davlat universiteti talabalari orasida imkoniyatlardan samarali foydalanib, o‘z yo‘lini topayotgan, qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarayotgan va turli yo‘nalishlarda ulkan yutuqlarga erishayotgan yoshlar soni tobora ortib bormoqda. Ular bugun sport va fan yo‘nalishlarida nafaqat respublikada, balki qator xalqaro tanlovlarda Vatani sha’nini munosib himoya qilmoqdaki, bu avvalo, ularni qo‘llab-quvvatlayotgan, ertangi kuniga ishonch berayotgan davlat rahbarining, qolaversa, universitet jamoasi, fidoyi ustozlarining mashaqqatli mehnatlari samarasi hisoblanadi.

Xususan, Farg‘ona davlat universitetining yurisprudensiya yo‘nalishi talabasi Jamshidbek Sotvoldiyev hamda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, bitiruvchi talabamiz Qobiljon Shermatov “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Bu yutuq, bu e’tibor, bu ishonch farzandlarimizning yanada yuqori marralarni zabt etishga yangicha kuch, g‘ayrat, shijoat bag‘ishlaydi, albatta.

Bugun o‘zgacha iftixor bilan kutayotganimiz aziz bayram munosabati bilan tashkil etilayotgan madaniy-ma’rifiy tadbirlar, ochiq muloqotlar, ko‘rik-tanlovlar, “Ona diyor — ranglar jilosida”, “Eng ulug‘, eng aziz”, “Vatan uchun yashaylik!” kabi tanlovlar aynan xalqimiz ruhiyatini ko‘tarishga, vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu esa bayramni oddiy tantana emas, balki xalq irodasining, milliy g‘urur va faxrning ramziga aylantiradi. Demak, **“Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!”** shiori bu — faqat so‘z emas, bugungi islohotlar mohiyati, ertangi kunimizning poydevori, har bir yurtdoshimizning hayotiy shiori. U bizni birlashtiradi, rag‘batlantiradi, ruhlantiradi. Har bir o‘zbek farzandi bu shiorni qalbiga jo etib, o‘z bilimini, kuchini, fidoyiligini aynan shu tamoyillarga asoslangan holda ishga solsa, Vatanimiz, albatta, yanada yuksaladi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
**Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-846.
34930 nusxada bosildi.
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug‘murodov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 21:30

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05